**Аннотация:** *Ushbu maqolada bugungi kunda ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligiga ta'siri hamda ekstremistik va terrorchilik faoliyatlariga qarshi kurashishda O'zbekistonning tutgan o'rni o'rganilgan. Shuningdek, bu boradagi salbiy oqibatlarni oldini olish bilan bog'liq takliflar keltirilgan.*

**Калит со'злар:** *ekstremizm, terrorizm, tinchlik, vahima, jamiyat qadriyatları, xavfsizlik, buzg'unçılık.*

**Аннотация:** В данной статье изучено влияние экстремизма и терроризма на стабильность общества и роль Узбекистана в борьбе с экстремистской и террористической деятельностью. Также были высказаны предложения по предотвращению негативных последствий в этом отношении.

**Ключевые слова:** *экстремизм, терроризм, мир, паника, ценности общества, безопасность, разрушение.*

**Annotation:** *This article examines the impact of extremism and terrorism on the stability of society and the role of Uzbekistan in the fight against extremist and terrorist activities. Proposals were also made to prevent negative consequences in this regard.*

**Keywords:** *extremism, terrorism, peace, panic, values of society, security, destruction.*

Olam yaralibdiki, tinchlik-osoyishtalik insoniyat uchun tengsiz ne'mat bo'lib kelgan. Borliqdagagi barcha ezgu maqsadlarning ro'yobi eng avvalo shu ne'matga bog'liqdir. Bunday tengsiz ne'mat qadriga yetish, saqlash va uni yanada mustahkamlash hozirgi kunimizning dolzarb masalalaridan biriga aylanib borayotgani hech kimga sir emas, albatta. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, bugun biz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar ko'yib, tinch va osoyishta hayot kechirayotgan, o'z quchi va imkoniyatlariga tayanib, rivojlanishning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlagan, jamiyatda inson qadrini ulug'lashdek oliv maqsadlarga erishish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan jannatmakon o'lkada yashamoqdamiz.

Biroq uzoq davarlardan bizga ma'lumki, yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan yovuzlik kabi nisbiy kuchlar bo'lganidek, inson hayotiga raxna soluvchi ofatlar ham mavjud. Ulardan biri esa diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmdir. Bu kabi ofatlar o'tgan asrning so'nggi o'n yilligi va XXI asrga kelib, o'zining jirkanch

qiyo

fasini namoyon eta boshladi. Bu esa o‘z navbatida xalqimizdan ana shunday holatlarning din niqobi ostida yo‘g‘rilgan, siyosiy manfaatlarni ko‘zlab amalga oshirilayotgan nayranglarga aldanib qolmasliklarini talab qiladi.

Ekstremizm va terrorizm insoniyat bilan birga XXI asrga kirib kelgan, eng xavfli ijtimoiy illatlardan biridir. Diniy rangbaranglikni rad etishi bilan mamlakat taraqqiyotining muhim tarixiy omili bo‘lgan fuqarolararo hamjihatlikka rahna solishiga, aqidaparastlar nafaqat ijtimoiy hayotning siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy sohalariga zarar yetkazishi, balki jamiyatga ommaviy tarzda psixologik bosim o‘tkazib, eng mudhish oqibatlarga olib kelishiga hamda dinni siyosiylashtirish va soxtalashtirish orqali mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqarishga qaratilgan har qanday harakatning oldini olishda barchamizning oldimizda turgan hayotiy muhim masalalardan biridir.

Jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar va me’yorlarga zid qarashlarni ilgari surish, keskin qarashlar va chorallarga moyillik ekstremizmnинг asosiy xususiyati hisoblanadi. Ekstremizm va terrorizm dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarda shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga tahdid solmoqda. Albatta, bu jarayonlar barchamizni ogohlilikka chaqiradi. Boisi, tinchlik bo‘lmagan joyda taraqqiyotga yo‘l yo‘q. Yurtimizda turli sohalarda erishilayotgan barcha ulkan yutuqlarimizning zamirida jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikning ahamiyati kattadir.

Ekstremistik va terroristik tuzilmalarning asosiy maqsadi aslida jamiyatni qo‘rquv va vahimada tutib turish va shu yo‘l bilan omma ongida noilojlik, ertangi kunga ishonchszlik tuyg‘ularini shakllantirishga qaratilgan. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy hayotning turli jabhalarida barqarorlikka erishishni so‘ndirish va jamiyat taraqqiyotini jiddiy shikastlanishiga olib keladi. E’tiborlisi shundaki, ekstremistik va terroristik ruhdagi tuzilmalarning hech biri biror bir shaklda o‘zları jar solayotgan, o‘zları “intilayotgan” jamiyat qurilishi modelini taklif etolmaydi. Yana tan olish kerakki, ommaviy axborot vositalarining rivoji va axborot omili ta’sirining kuchayishi ham bugungi kunda ekstremizm va terrorizmning hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan darajada ko‘zga tashlanadigan ijtimoiy hodisaga aylanishiga olib kelmoqda.

Ekstremizm va terrorizm illatining so‘nggi paytlarda tobora kuchayib borayotgani mazkur muammoning naqadar dolzarb ekanini ko‘rsatadi. Bugungi kunda ekstremizm va terrorizm alohida mamlakatlarning milliy xavfsizligi va umuman jahon hamjamiyatiga jiddiy tahdid uyg‘otayotgan omilga aylanib ulgurgan. Umumbashariy muammoga aylangan ekstremizm va terrorizmni jahon hamjamiyati faqat birgalikda, turli tor geosiyosiy

faatlardan voz kechgan holda harakat qilibgina yenga olishi mumkinligi aksariyat davlatlar tomonidan tan olingani ayni haqiqatdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu borada: “Ayni vaqtida dunyoning ba’zi mintaqalarida yuzaga kelgan notinch vaziyat aholi migratsiyasi kuchayishiga, bu esa, o’z navbatida, terrorizm va ekstremizmning tarqalishiga hamda ularning global muammolardan biriga aylanishiga olib kelmoqda. Bunday vaziyatda milliy davlatchiligidimiz, mustaqilligimiz, aholimizning tinch va osoyishta hayoti va xavfsizligimizni saqlash biz uchun eng ustuvor vazifaga aylanib bormoqda” deya ta’kidlaganlar.

Aytish joizki, turli ekstremistik va terroristik tashkilotlar Markaziy Osiyo davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni izdan chiqarishga qaratilgan faoliyatini davom ettirmoqda. Shu nuqtai-nazardan, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev jahon hamjamiyati e’tiborini Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minalash maqsadida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash, terrorizm va ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik va narkotrafik tahdidlariga qarshi samarali kurashishni BMT preventiv diplomatiya usullaridan foydalangan holda, shuningdek, MDH, SHHT, YEXHT va boshqa nufuzli xalqaro hamda mintaqaviy tuzilmalar mexanizmlari doirasida ta’minalash mumkin ekaniga, xavfsizlikka tahdidlarni “o’ziniki va o’zgalarniki” deb ajratishdan voz kechish, “yaxlit xavfsizlik” tamoyiliga amalda rioya qilish zarurligiga qaratmoqda.

Bizning xalqimiz terrorizm dahshatini o’z boshidan bir necha bor kechirgan, bu buzg’unchilik harakatining aziyatlarini juda yaxshi tushunadi. Jumladan, Toshkentda ro’y bergen fevral voqealari, Surxondaryo viloyatining Sarosiyo, Uzun tumanlaridagi xunrezliklar, poytaxtimizdagi xorijiy davlatlar elchixonalarida terrorchilik akti sodir etishga bo’lgan urinishlar, Andijon voqealari va boshqa terroristik harakatlarning bari ana shu yovuz kuchga birikkan jangarilarning konstitutsiyaviy tuzumga qarshi xurujlari edi. Yurtimizda ushbu illatlarga qarshi kurashish, uning sabablarini oldini olish bo’yicha jahon hamjamiyatiga namuna bo’la oladigan darajada o’ziga xos tajriba shakllangan.

Respublikamizda Prezidentimiz boshchiligidagi hukumatimiz tomonidan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash borasida jahon hamjamiyati uchun namuna bo’lishi mumkin bo’lgan samarali ishlar qatorida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- to’g’ri yo’ldan adashganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ularni sog’lom hayotga qaytarish maqsadida mazkur shaxslar bilan keng jamoatchilikni jalg etgan holda tushuntirish-profilaktika ishlarini tizimli tashkil qilish, ularni maxsus ro’yxatdan chiqarish bo’yicha mexanizm yaratildi. Mazkur mexanizmning samarasи sifatida aqidaparastlik g’oyalari ta’siriga tushgan 16 mingdan ziyod fuqarolarning ichki ishlar organlarining maxsus hisobidan chiqarilishi jamiyatda katta ijobiy

nans berdi;

- yoshlarni ilm-ma'rifikatga o'rgatish, ularga islam dinining insonparvarlik mohiyati, islam madaniyatining asl qadriyatlari yetkazish, ma'rifiy islam ta'limoti, buyuk ajdodlarimizning ulkan ma'naviy merosini chuqur o'rganish, jamiyatda diniy va milliy bag'rikenglik va hamkorlikni mustahkam qaror toptirish orqali aholi, ayniqsa, yoshlarda aqidaparast g'oyalarga nisbatan mustahkam ma'naviy himoya qobig'i shakllantirish maqsadida Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Samarqandda hadis va kalom ilmi maktabi, Buxoroda tasavvuf maktabi, Qashqadaryoda aqida maktabi, Farg'onada islam huquqi (fiqh) ilmiy maktablari ochildi. Shuningdek, Davlat Rahbari darajasida respublikada mavjud diniy konfessiya rahbarlari bilan muloqotlar uyuştirilib, barcha din vakillariga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda;

- har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining diniy ekstremizmga qarshi kurash, millatlararo va konfessiyalararo hamkorlikni yanada kuchaytirishga yo'naltirilgan kompleks tadbirlar dasturi qabul qilinadi. Ushbu dastur doirasida davlat va jamoat tashkilotlari, mahalla yig'inlarida, aholining turli qatlamlari orasida ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq tahdidlarning oldini olishga qaratilgan seminar, uehrashuv va davra suhbatlari o'tkazish yo'lga qo'yilgan;

- aqidaparastlik g'oyalari tarqalishini oldini olish uchun OAV va boshqa axborot yetkazish vositalaridan samarali foydalanishga urg'u berilmoqda. Xususan, "Diniy ekstremizm – kelajakka tahdid", "Ekstremizm va terrorizm – taraqqiyot kushandas", "Ogoh bo'ling "Sekta", "Din niqobi ostidagi axborot xurujlari" nomli bukletlar tayyorlanib, mahallalarga, turli vazirlik, tashkilot va idoralar orqali aholiga yetkazilmoqda;

- xorijdagi mehnat migrantlari, talabalar va vaqtincha istiqomat qilayotgan vatandoshlarimizni ekstremistik oqimlar ta'siriga tushib qolishini oldini olish yuzasidan zarur tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizning taniqli ulamolari Rossiya Federatsiyasining Moskva, Sankt-Peterburg, Yekaterinburg, Novosibirsk va Qozon shaharlari, Chuvash Respublikasi, Sibir o'lkasi, Sverdlovsk va Omsk viloyatlariga Ukrainianing Kiyev shahriga xizmat safariga yuborilib, mazkur tashriflar davomida o'tkazilgan diniy-ma'rifiy uehrashuvlarda ma'rifiy islam ta'limoti hamda hozirda buzg'unchi oqimlar tomonidan noto'g'ri talqin qilinayotgan "hijrat", "jihod", "shahidlik" kabi tushunchalarning asl mohiyati haqida keng tushunchalar berilmoqda.

Dunyoda ekstremizm va terrorizm tahdidlari, ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi, asosan, kuch ishlatalish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotganidan dalolat beradi.

identimizning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqida xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etishi, shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa ekaniga e'tibor qaratildi. Bu borada ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Ayni paytda aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizm (xalqaro terrorizm) dunyo ahlining xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgani ko'pchilikka sir emas. Yovuz niyatli ekstremistik va terrorchi oqimlarning tarafдорлари xalqimizning tinch-totuv hayotiga raxna solishga, ayniqsa, kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarimizni yo'ldan ozdirishga harakat qilmoqdalar. Bu yovuz niyatlılarning farovon hayotimizni ko'ra olmaslik kayfiyati, tuzumimizga qarshi tajovuzdan iborat urinishlari barcha taraqqiyat parvar kishilarni g'azablantirmoqda. Ularning bunday xatti-harakatlarini qonun ham qattiq qoralaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining tegishli moddalarida ekstremistik, boshqa ta'qiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Shunday ekan, qabih va razil to'dalar har qancha urinishmasin, bizni o'z tanlagan yo'limizdan chalg'ita olmaydi. Davlatimiz muntazam ravishda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash va uni oldini olish borasida izchil siyosatni yuritib kelmoqda. Shu nuqtai-nazardan, Prezidentimizning ikki global ahamiyatga ega, ya'ni yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning "Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya"sinи ishlab chiqish hamda BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish haqidagi takliflari barcha mamlakatlar tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilindi va qo'llab-quvvatlandi.

Darhaqiqat, jadal suratda o'zgarayotgan bu zamonda eskicha yondashuv o'z samarisini bermaydi. Yoshlarni o'zimiz tarbiya qilmasak, ota-bobolarimiz yurgan yo'ldan yurmasak, ular erishgan yutuqlarga yeta olmaymiz. Respublikamizda so'ngi yillarda ekstremizm va terrorizmga qarshi ma'rifiy yo'l bilan kurash olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'lda aholining huquqiy savodxonligini oshirish, ekstremistik oqimlar safiga adashib kirib qolgan, qo'li qonga botmagan va qilgan ishidan chin dildan pushaymon bo'lganlarga nisabatan kechirimlilik siyosatini olib borish, yosh avlodning turli buzg'unchi oqimlar safiga kirib qolishining oldini olish bo'yicha muntazam targ'ibot ishlarini olib

h dolzarb vazifalar etib belgilangan. O'z navbatida, mamlakatimizning ekstremizm va terrorizmga qarshi ma'rifiy yo'l bilan kurash olib borayotgani ko'plab davlatlar va xalqaro tashkilotlar hamda mustaqil ekspertlar tomonidan yuqori baholanmoqda. Bu borada targ'ibot-tashviqot ishlari muhim o'rinn tutmoqda. Ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlar, tumanlardagi umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlarida, mahallalarda huquqni muhofaza qilish idoralarining rahbar xodimlari, qishloq va mahalla fuqarolar yig'inlari raislari, masjidlarning imomlari, ota-onalar vakillari, o'qituvchi va o'quvchilar ishtirokida suhbat va uchrashuvlar, "Ekstremizm va terrorizm – insoniyat dushmani" mavzuida yig'ilishlar, ushbu mavzudagi videofilmlar, profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash davlatlarning doimiy e'tiborini, uning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan ko'p qirrali siyosatni amalga oshirishda sabrlilik va sobitlikni talab etadi. Shakllanib, keng tarmoq otgan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashmagan davlatlar zaiflashib, o'z xalqi va mamlakati osoyishtaligi va barqaror rivojlanishini xavf ostida qoldiradi. Darhaqiqat, ekstremizm va terrorizm bir-biri bilan bog'liq bo'lgan yagona jarayonning birin-ketin rivojlanadigan bosqichlaridir. Shunday ekan, ekstremizm va terrorizm global miqyosga chiqqan hozirgi sharoitda, davlat unga qarshi kurashda ichki va tashqi omillarning ta'sirini hisobga olgan holda, muvozanatlashtirilgan strategiyani ilgari surishi kerak.

Ayni paytda ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq ta'qilangan har qanday faoliyat Markaziy Osiyoda asosiy tahdidlarlan biri bo'lib qolmoqda. Bunda birinchi galdagi vazifalardan biri mintaqa davlatlari va xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlarini birlashtirishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekistonda "2021-2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi"ni (keyingi o'rinnarda Milliy strategiya) qabul qilinishi mazkur noqonuniy faoliyatni mamlakatimiz va qo'shni davlatlarda nafaqat avj olishini balki, ushbu faoliyatga qarshi kurashishga qaratilagan chora-tadbirlarni o'zida mujassamlashtiradi hamda bir qator ustuvor yo'nalishlar va asosiy vazifalarni amalga oshirish zarurligini talab etadi.

Quyidagilar qabul qilingan Milliy strategiyaning ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan [2]:

- vatanlarvarlik, an'anaviy qadriyatlar va bag'rikenglik mafkurasini targ'ib qilish;
- voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida ekstremizm va terrorizm g'oyalari tarqalishining oldini olish;
- ayollar huquqlarini himoya qilish ham

da ularning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishdagi rolini kuchaytirish;

- uzoq muddat xorijda bulgan fuqarolarni ekstremizm va terrorizm g'oyalari ta'siridan himoya qilish;

- Internet jahon axborot tarmog'idan ekstremistik va terrorchilik maqsadlarda foydalanishga qarshi kurashish;

- fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborotvositalarini ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga keng jalg qilish;

- ekstremistik va terrorchilik harakatlarini sodir etganlik hamda ularni moliyalashtirganlik uchun huquqiy ta'qib va javobgarlikka tortish choralarini takomillashtirish;

- ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

- ushbu sohadagi xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish.

Fikrimizcha, O'zbekistonda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash hamda ushbu noqonuniy faoliyat ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarni oldini olish maqsadida quyidagi vazifalarni amalga oshirilishi lozimdir:

- ekstremizm va terrorizm tahdidlarini oldini olishning xalqaro-huquqiy asoslarni takomillashtirish va har qanday ta'qilangan faoliyatni amalga oshirganlik uchun javobgarlikning muqarrarlik tamoyilini keng targ'ib qilish;

- ekstremizm va terrorizm tahdidlariga ogoh turish borasida ijobiy natijaga erishgan davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan mazkur sohada hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini kengaytirish;

- chet el davlatlarida bo'lib turgan O'zbekiston fuqarolari bilan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan profilaktik choralarining samaradorligini oshirish;

- nafaqat O'zbekiston balki, butun Markaziy Osiyoda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha birgalikdagi harakatlar doirasida axborot almashinuvi va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beruvchi xalqaro tashabbuslarni kengaytirish. Yuqorida qayd etilgan tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligiga ta'sir etuvchi tahidlarni oldini olish bo'yicha huquqiy, tashkiliy va mafkuraviy mexanizmlarning samarali tizimini shakllantirishga hamda jamiyatning turli qatlamlarida ekstremistik va terrorchilik g'oyalarining tarqalishiga to'sqinlik qilishda davlat organlari faoliyatining samaradorligini oshirishiga erishish mumkin.

Xulosa o'rnila shuni aytish mumkinki, insoniylik qiyofasini butunlay yo'q

otgan, tinch aholiga jabr-sitam, o'lim tahlikasini solib turish jirkanch muddaosiga aylangan qora kuchlar dunyoning qaysidir burchagida hali ham bor ekan, hamisha hushyor va ogoh bo'lishimiz, ekstremizm va terrorizmga qarshi hamma bab-baravar kurashishi kerak. Chunki, qayerda bo'lmasin terrorizm harakati ro'y bersa, vujudida zarra odamgarchiligi, mehr-oqibati bor insonni bezovta qiladi. Shu bilan birga ba'zan chuqur o'yga tolib, o'zinga o'zing, jamiyatdagi bu kabi noshudlar, xattoki dinni o'ziga niqob qilib olgan ekstremist va terroristlar insonlarni qo'rkitib, dahshat solib, zo'ravonlik qilish va boshqa qabihliklar bilan shug'ullanuvchi bu kimsalarni ham ona tuqqanmikin? Volidasi qulog'iga alla aytib, qalbiga mehr-oqibat urug'ini qadaganmikin? – deb aytging keladi. U yer – bu yerdagi xunrezliklarni kuzatib, bu toifadagilar insoniy tarbiya olmagan, kishi bilmas joylarda berkinib, vahshiylikka o'rgatilgan manqurtlar emasmi, deb o'ylab qolasan. Har vaqt, har joyda – xoh ko'chada, xoh transportda, xoh odamlar gavjum to'planadigan hududlarda o'ta xushyor bo'laylik, ogohlilikni bir dam bo'shashtirmaylik. Shundagina biz albatta terror degan balodan holi bo'lamiz va jamiyatimiz barqaror bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021). THE PEDAGOGICAL SYSTEM OF PREPARING BOYS FOR FAMILY RELATIONSHIPS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(8).
2. Арипов, Ш. О. (2022). Ёшларни оиласа тайёрлашда оиласа эр ва хотиннинг айрим мажбурият ва бурчларини қонуний жиҳатдан тушунтириш. Academic research in educational sciences, 3(1), 68-75.
3. Aripov, S. O. (2020). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE FAMILY IN PREPARING CHILDREN. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 311-313).
4. Olimovich, A. S. (2023). DINIY VA DUNYOVIIY BILIMLAR ASOSIDA AJRIM SABABLARINI YOSHLARNI OILAGA TAYORLASHDA YETKAZIB BERISH. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(26), 335-338.
5. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2023, June). Language and computer in the development of communicative competence of school children. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.
6. Olimovich, A. S. (2023). The Role of Parents in the Formation of Young Peop

le and the Imagination of the Family. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 2(4), 4-8.

7. Olimovich, A. S. (2023). DINIY VA DUNYOVİY BİLİMLƏR ASOSIDA AJRIM SABABLARINI YOSHLARNI OILAGA TAYORLASHDA YETKAZIB BERİSH. İJODKOR O'QITUVCHI, 3(26), 335-338.

8. Olimovich, A. S. (2023). The Role of Parents in the Formation of Young People and the Imagination of the Family. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 2(4), 4-8.

9. Юсупова, Р. Т., & Шаланкова, О. Е. (2020). РЕПРОДУКТИВНОЕ ЗДОРОВЬЕ ДЕВОЧЕК-ПОДРОСТКОВ, ПРОЖИВАЮЩИХ В УСЛОВИЯХ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ. In Университетская наука: взгляд в будущее (pp. 612-614).

10. Бабажанова, Ш. Д., & Шаланкова, О. Е. (2023). ВЛИЯНИЕ АДИПОКИНОВ НА РАЗВИТИЕ ПРЕЭКЛАМПСИИ У БЕРЕМЕННЫХ ЖЕНЩИН С ОЖИРЕНИЕМ. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 7(7), 57-59.

11. Юлдашева, М. Т., & Шаланкова, О. Е. (2023). ВОЗДЕЙСТВИЕ ПЕСТИЦИДОВ НА КОЛИЧЕСТВО РЕСНИЧЕК В РЕСПИРАТОРНОМ ЭПИТЕЛИИ. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 7(7), 45-48.

12. Абдулазизова, Ш., Юлдашева, М., Мамасаидов, Ж., & Абдулхакимов, А. (2023). ВЛИЯНИЕ ФИЗИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ НА МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ВИЛОЧКОВОЙ ЖЕЛЕЗЫ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ). Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(10), 5-9.

13. Абдулазизова, Ш. (2017). ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ПРОТИВОВИРУСНЫХ ПРЕПАРАТОВ ПРИ H1N1-АССОЦИИРОВАННОЙ ПНЕВМОНИИ. In Современные медицинские исследования (pp. 23-24).

14. Бабажанова, Ш. Д., & Шаланкова, О. Е. (2023). ВЛИЯНИЕ АДИПОКИНОВ НА РАЗВИТИЕ ПРЕЭКЛАМПСИИ У БЕРЕМЕННЫХ ЖЕНЩИН С ОЖИРЕНИЕМ. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 7(7), 57-59.

15. Юлдашева, М. Т., & Шаланкова, О. Е. (2023). ВОЗДЕЙСТВИЕ ПЕСТИЦИДОВ НА КОЛИЧЕСТВО РЕСНИЧЕК В РЕСПИРАТОРНОМ ЭПИТЕЛИИ. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 7(7), 45-48.

**TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISH VA O'QUVCHILAR  
BILIMINI ZAMON TALABI ASOSIDA BAHOLASHNING SAMARALI  
USULLARI**

**Oxunjonov Bobirjon Ilhomjon o'g'li**

*IIV Farg'ona akademik litseyi Tarix fani o'qituvchisi*

Mashhur o'zbek taraqqiyatparvari, jadidchilik harakatining yirik namoyondasi Abdurauf Fitrat 1917-yilda tarixdan saboq chiqarish to'g'risida shunday yozgan edi: "Tarix millatlarning o'tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o'r ganaturg'on ilmdir". Darhaqiqat, tarix xalqqa saboq va ma'rifat beradi. Tarixni o'r ganmasdan turib kelajakni anglab bo'lmaydi. Tarix inson aql-idroki va tafakkurining shunday bir nodir va mo'jizakor mahsuli, inson tarixdan ta'lim-tarbiya oladi, tarix katta saboq beradi. Tarix saboqlaridan o'ziga tegishli xulosa chiqara olmagan, kechagi kunini yaxshi bilmagan millatning kelgusi qismati o'z-o'zidan ravshan. Axborotkommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan davrda yashayotganimizga qaramasdan, avvalambor tarixni bilish –bu hayotiy zaruratdir.

Jumladan, Vatanimiz O'zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi ham inson va uning manfaatlari, uning xavfsizligi va farovonligini ta'minlash hamda barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, yoshlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish-ta'limgartarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim. Ta'limning bugungi kundagi vazifasi o'quvchilarni kun sayin takomillashib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga albatta dars jarayonlarida turli pedagogik texnologiyalar yordamida mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Innovatsion ta'lim texnologiyalarini pedagogik amaliyatga tatbiq etish uchun o'qituvchiga quyidagi komponentlar-bilim, ko'nikma va malakalar zarur bo'ladi:

- O'z fanining asoslarini chuqur egallagan, ilmiy salohiyat va ma'naviy barkamollikka ega bo'lishi;
- O'z fanining ilg'or targ'ibotchisi, fidoiysi bo'lishi;
- Ilg'or pedagogik tajribani o'r ganish va umumlashirish, o'zlari ham yangicha o'qitish uslublarini ishlab chiqishi;
- O'quv jarayonini tashkil etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan keng foydalanish;

- Internet tarmog‘i to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lishi va undan o‘z bilimini oshirishda foydalana olishi;
- Innovatsion ta’lim texnologiyalarining turlari, qoidalari va tamoyillari haqida tushunchaga ega bo‘lishi;
- O‘quvchilarning faolligini o‘sirish, ularning mustaqil ta’lim olish jarayonlarini o‘rganish, o‘qitish jarayonini mazmunli, qiziqarli, ijodiy, samarali bo‘lishi uchun ta’limning interfaol metodlarini qo‘llay bilish;
- O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash va ularning monitoringini olib borish;

Zamon talablariga hamohang bo‘lgan o‘qituvchi o‘quvchilarning bilim darajalariga qarab vazifalarni belgilashi lozim. Sababi darslardagi bir xillik, faqat kitobdagagi ma’lumotlar bilan cheklanib qolish bugungi kun intelektual salohiyati yuqori bo‘lgan yoshlarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini susaytirishi mumkin. Bugungi kun o‘qituvchisi pedagogik va axborot texnologiyalar, interfaol uslublar bilan qurollansagina o‘quvtarbiya jarayonini qiziqarli tashkil eta oladi. O‘qituvchi o‘zi o‘qitayotgan o‘quvchilarning bilim salohiyatiga mos ravishda vazifalarni belgilashi lozim.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki: ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ikki muhim ko‘rsatkichi – sifat va samaradorlik, aynan o‘qituvchining salohiyati va kasbiy mahoratiga uzviy bog‘liq. O‘qituvchi tajriba va malakasining uyg‘unligi muvaffaqiyatlar garovi ekanligi sir emas. O‘qituvchining ijodkor va tashabbuskor bo‘lishi lozimligini buyuk nemis pedagogi A.F.Distervergning fikri ham tasdiqlaydi: “Noqobil o‘qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo‘yadi, yaxshisi esa uni topishga o‘rgatadi”. Har bir pedagog pedagogik faoliyat yuritar ekan, berayotgan ta’limtarbiyasining yanada samarali bo‘lishi uchun o‘z ustida muttasil ishlashi, bilimini, mahoratini oshirishi, o‘quvchilar bilan bo‘ladigan munosabatlarni puxta o‘ylab, ularning ko‘ngliga ozor yetkazmasdan ish olib borishi lozim. O‘quvchi yoshlarni avvalo, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun dars jarayonida butun rahbarlikni o‘z qo‘liga olib, mavzu mohiyatini to‘liq tushuntirgan o‘qituvchi emas, balki o‘quvchilariga ishlash uchun sharoit va erkinlik yaratishga erishgan, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatgan o‘qituvchigina chin ma’nodagi pedagog va tarbiyachidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Юсупова, Р. Т., & Шаланкова, О. Е. (2020). РЕПРОДУКТИВНОЕ ЗДОРОВЬЕ ДЕВОЧЕК-ПОДРОСТКОВ, ПРОЖИВАЮЩИХ В УСЛОВИЯХ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ. In Университетская наука: взгляд в будущее (pp. 612-614).
2. Бабажанова, Ш. Д., & Шаланкова, О. Е. (2023). ВЛИЯНИЕ АДИПОКИНОВ НА РАЗВИТИЕ ПРЕЭКЛАМПСИИ У БЕРЕМЕННЫХ ЖЕНЩИН С ОЖИРЕНИЕМ. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 7(7), 57-59.
3. Юлдашева, М. Т., & Шаланкова, О. Е. (2023). ВОЗДЕЙСТВИЕ ПЕСТИЦИДОВ НА КОЛИЧЕСТВО РЕСНИЧЕК В РЕСПИРАТОРНОМ ЭПИТЕЛИИ. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 7(7), 45-48.
4. Абдулазизова, Ш., Юлдашева, М., Мамасаидов, Ж., & Абдулхакимов, А. (2023). ВЛИЯНИЕ ФИЗИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ НА МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ВИЛОЧКОВОЙ ЖЕЛЕЗЫ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ). Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(10), 5-9.
5. Абдулазизова, Ш. (2017). ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ПРОТИВОВИРУСНЫХ ПРЕПАРАТОВ ПРИ H1N1-АССОЦИИРОВАННОЙ ПНЕВМОНИИ. In Современные медицинские исследования (pp. 23-24).
6. Бабажанова, Ш. Д., & Шаланкова, О. Е. (2023). ВЛИЯНИЕ АДИПОКИНОВ НА РАЗВИТИЕ ПРЕЭКЛАМПСИИ У БЕРЕМЕННЫХ ЖЕНЩИН С ОЖИРЕНИЕМ. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 7(7), 57-59.

**YUKSAK AHLOQLI VA BARKAMOL YOSHLAR TARBIYALASHDA  
MADANIYATNING TUTGAN ROLI**

**Davronov Ulug'bel Mirzadavlatovich**

*Farg'ona davlat universiteti*

*Harbiy ta'lif fakulteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqoada yuksak ahloqli va barkamol yoshlар tarbiyalashda madaniyatning tutgan roli haqida ilmiy izlanishlar olib borilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ahloq, alaba, tarix, zamon, tizim.*

Talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash zamonaviy ta'lif tizimining ustuvor vazifasi bo'lib, ta'lif uchun ijtimoiy buyurtmaning muhim tarkibiy qismidir. Jamiyatimizning ma'naviy-axloqiy mustahkamlanishida ta'lif muhim o'rinn tutadi. Jamiyat umumiy axloqiy ko'rsatmalar tizimiga ega bo'lgandagina keng ko'lamli umummilliyl vazifalarni qo'yish va hal etishga qodir. Ularda o'z ona tiliga, o'ziga xos madaniyati va o'ziga xos madaniy qadriyatlariga, ajdodlari xotirasiga, milliy tarixning har bir sahifasiga hurmat-ehtirom ko'rsatiladigan ana shunday diqqatga sazovor joylar bor.

Jamiyatning ma'naviy-axloqiy uyg'unlashuvida ta'lif asosiy o'rinn tutadi. Maktab Respublikaning barcha fuqarolari o'tadigan yagona ijtimoiy muassasadir. Shaxsiy qadriyatlar, albatta, birinchi navbatda oilada shakllanadi. Lekin shaxsning eng tizimli, izchil va chuqur ma'naviy-axloqiy tarbiyasi ta'lif sohasida amalga oshadi. Shuning uchun maktabda va nafaqat maktabda, balki kollejda ham o'quvchining nafaqat intellektual, balki ma'naviy, madaniy hayoti ham jamlanishi kerak.

Maktab yoshidagi bola, ayniqsa, boshlang'ich maktabda, ma'naviy-axloqiy rivojlanish va tarbiyani eng yaxshi qabul qiladi. Ammo bu tarbiyadagi kamchiliklarni keyingi yillarda to'ldirish qiyin. Bolalikda tajribali va assimilyatsiya qilingan katta psixologik barqarorlik bilan ajralib turadi. O'smirlar, o'z navbatida, aynan bolalikdan ularda shakllangan ma'naviy-axloqiy tarbiya sifatlariga asoslanadi: mehr-oqibat, mehr-oqibat, do'stlik, mas'uliyat, itoatkorlik, sabr-toqat, sadoqat, bag'rikenglik, o'zaro yordam kabi.

Yosh avlod tarbiyasini rivojlantirishning eng muhim bosqichi ma'naviy-axloqiy kamolot va ta'lif konsepsiysi hisoblanadi.

Konsepsiyada shaxsni ma'naviy-axloqiy rivojlantirish va tarbiyalashning maqsad va vazifalari, asosiy milliy qadriyatlar tizimi, shaxsni ma'naviy-axloqiy kam

ol toptirish va tarbiyalash tamoyillari belgilab berilgan.

Ta'lim ma'lum bir idealga erishishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi va tarbiyasi tushunchasi bizni qaysi idealga yo'naltiradi?

Bizning davrimizda Vatan taqdirini o'zinikidek qabul qiladigan, o'z mamlakatining buguni va kelajagi uchun mas'uliyatni his etadigan, o'z davlati xalqining ma'naviy-axloqiy va axloqiy an'analarini ulug'laydigan respublikamizning shunday fuqarosi yosh avlodni tarbiyalash konsepsiyasining idealidir.

Ma'naviy-axloqiy taraqqiyot, tarbiya va ijtimoiylashtirishning asosiy mazmuni asosiy milliy qadriyatларdir. Biz ushbu qadriyatлarni madaniy va oilaviy an'analarda saqlaymiz va ularni avloddan avlodga o'tkazamiz. Ushbu qadriyatлarga tayanish insonga halokatli ta'sirlarga qarshi turishga yordam beradi.

Bizning an'anaviy axloqiy manbalarimiz nima? Bu eng avvalo oila, mehnat, san'at, fan, din, tabiat, insoniyat. Shunga ko'ra, asosiy milliy qadriyatлar belgilanadi:

- vatanparvarlik - o'z kichik Vataniga, o'z xalqiga muhabbat, o'z erkinligi va o'z yurtining erkinligi uchun kurash;
- fuqarolik – huquq va tartibot, vijdon va e'tiqod erkinligi, qonun ustuvorligi;
- ijtimoiy hamjihatlik – shaxsiy va milliy erkinlik, odamlarga, davlat va fuqarolik jamiyati institutlariga ishonch,adolat, shafqat, sha'ni, qadr-qimmati;
- insonparvarlik - dunyo tinchligi, madaniyatlar va xalqlarning xilma-xilligi, insoniyat taraqqiyoti, xalqaro hamkorlik, bag'rikenglik;
- ilm - bilimning qadri, haqiqatga intilish, dunyoning ilmiy manzarasi, yangi narsalarni o'rganish va o'z davlati va jamiyati taraqqiyoti uchun mehnat qilish istagi;
- oila - muhabbat va sadoqat, sog'lik, farovonlik, ota-onaga hurmat, katta va kichiklarga g'amxo'rlik, nasl qoldirish uchun g'amxo'rlik;
- mehnat va ijodkorlik - mehnatga hurmat, ijod va ijod, maqsadlilik va matonat;
- xalqimizga xos bo'lgan dinga hurmat, konfessiyalararo muloqot asosida shakllangan e'tiqod, ma'naviyat, insonning diniy hayoti, bag'rikenglik g'oyasi;
- san'at va adabiyot - go'zallik, uyg'unlik, insonning ma'naviy dunyosi, axloqiy tanlov, hayotning mazmuni, estetik rivojlanish va axloqiy rivojlanish;
- tabiat - evolyutsiya, ona yurt, qo'riqlanadigan tabiat, Yer sayyorasi, ekologik ong.

Asosiy qadriyatлar mакtab hayotining asosi bo'lishi kerak, bolalarning darsini, darsdan tashqari va maktabdan tashqari mashg'ulotlarini belgilashi kerak.

Boshqacha aytganda, shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi uchun barcha dasturlarning integratsiyasi zarur. O'qituvchi, ijtimoiy xodim, amaliy psixolog, oila, do'stlar... Bularning barchasi o'quvchi shaxsining rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Ma'n

aviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirishda o'qituvchining o'zi talaba tomonidan boshqariladigan shaxs sifatida muhim rol o'ynaydi; Muhimi, o'qituvchining o'zini qanday ko'rsatishi, talabaning rivojlanishi va yaxshi bo'lishini istashi uchun nima qilishi muhim. Zamonaviy o'qituvchi "o'z pozitsiyasi va imidjiga ega bo'lishi kerak: hissiylik, mas'uliyat, pedagogik sevgi, pedagogik optimizm". (A. S. Makarenko).

Ma'naviy-axloqiy tarbiya kollejdagi ta'lif-tarbiya jarayonining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, halol, mehribon, mehnatsevar insonlar bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi, bu ularning hayotda o'z o'rnni topishiga, olgan bilim va ko'nikmalarini Vatan ravnaqi yo'lida foydalanishiga xizmat qiladi.

Barcha o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bo'yicha metod va tadbirlarning o'ziga xos xususiyatlari kollej va ota-onalarning o'zaro hamkorligini kuchaytirishdan iborat. Bunga turli yo'llar bilan erishiladi: oila bilan uchrashuvlar, norasmiy sharoitda ota-onalar yig'ilishlarini o'tkazish; qo'shma darsdan tashqari tadbirlar o'tkaziladi: "muzeylarga, ko'rgazmalarga va sayohatlarga tashrif buyurish, sport musobaqalarini tashkil etish".

Talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi sog'lom turmush tarziga ijobjiy munosabat shakllanadigan va rag'batlantiriladigan shunday ta'lif sharoitlarini yaratishni ta'minlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Melibaevnaa, B. K., & Toshtemirovna, M. K. (2023). PNEUMONIA IN NEWBORN BABIES ON VENTILATORS. World Bulletin of Social Sciences, 19, 16-17.
2. Mahmudova, H. T. (2022). FEATURES OF PROVIDING HIGHLY SPECIALIZED MEDICAL CARE TO PREGNANT WOMEN WITH COVID-19 IN OBSTETRIC PRACTICE. Scientific Impulse, 1(5), 1329-1332.
3. Mahmudova, H. T. (2022). BEMORLARNI PARVARISH QILISHNING AHLOQIY ME'YORLARI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 218-221.
4. Maxmudova, X. T. (2022). TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA TIBBIY FANLARNI O'QITISHNING INTERFAOL USULLARINI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 826-830.
5. Maxmudova, X. T. (2022). TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA TIBBIY FANLARNI O'QITISHNING INTERFAOL USULLARINI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILM

IY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 826-830.

6. Olimovich, D. I. (2015). Tourism potential of Uzbekistan. *Lucrările Seminarului Geografic "Dimitrie Cantemir"*, 40, 125-130.
7. Davronov, I. O., & Khalimova, N. J. (2019). Professional development of hotel staff as a key to improve the quality of services in bukhara hotels. *Мировая наука*, (4 (25)), 27-29.
8. Mirzadavlatovich, D. U. B., & Baxriddin o‘g‘li, T. S. (2022). *OLIY HARBIY TA’LIM MUASSASALARI VA HARBIY TA’LIM FAKULTETI KURSANTLARI BILAN VATANPARVARLIK MAVZUSIDA NAZARIY KONFERENSIYALAR TAYYORLASH VA O ‘TKAZISH. IJODKOR O’QITUVCHI*, 2(23), 272-275.
9. Давронов, У. М. (2020). Развитие творческого мышления студентов через интерактивные технологии. *Вестник магистратуры*, (3-1), 23.
10. Юсупова, Р. Т., & Шаланкова, О. Е. (2020). *РЕПРОДУКТИВНОЕ ЗДОРОВЬЕ ДЕВОЧЕК-ПОДРОСТКОВ, ПРОЖИВАЮЩИХ В УСЛОВИЯХ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ*. In *Университетская наука: взгляд в будущее* (pp. 612-614).
11. Бабажанова, Ш. Д., & Шаланкова, О. Е. (2023). *ВЛИЯНИЕ АДИПОКИНОВ НА РАЗВИТИЕ ПРЕЭКЛАМПСИИ У БЕРЕМЕННЫХ ЖЕНЩИН С ОЖИРЕНИЕМ. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 7(7), 57-59.

## INTERNATIONAL CHALLENGES IN COMPUTER SCIENCE TRANSITION

Miraxmedov Jasurbek Dilmurotovich

*Ichki ishlar vazirli*

*Farg'ona akademik litseyi o'qituvchisi*

**Introduction:** The world is undergoing a rapid digital transformation, with computer science at the forefront of this evolution. As countries strive to adapt to the demands of the digital age, they face various challenges in transitioning their computer science education systems. This article delves into the international challenges encountered during the transition and explores potential strategies to overcome them.

**Curriculum Development and Adaptation:** One of the primary challenges in computer science transition is developing and adapting curricula to meet the changing needs of the digital landscape. Rapid advancements in technology require educators to keep pace with emerging trends and incorporate relevant topics such as artificial intelligence, cybersecurity, data science, and cloud computing. Ensuring that the curriculum remains up-to-date and aligned with industry requirements is crucial for preparing students for the evolving job market.

**Teacher Training and Professional Development:** To effectively teach computer science, educators need proper training and professional development opportunities. However, many countries face challenges in providing comprehensive training programs for teachers due to limited resources, a shortage of qualified instructors, or a lack of awareness about the importance of computer science education. Addressing these challenges requires investment in teacher training initiatives, establishing partnerships with industry experts, and encouraging continuous professional development for educators.

**Infrastructure and Access to Resources:** Transitioning to computer science education requires adequate infrastructure and access to resources. Many countries, particularly those with limited resources or in remote areas, face challenges in providing reliable internet connectivity, computer labs, and updated hardware and software. Bridging the digital divide is crucial to ensure equal opportunities for all students, regardless of their geographical location or socioeconomic background.

**Gender and Diversity Disparities:** Promoting diversity and inclusion in computer science education is a global challenge. Women and underrepresented groups often face barriers and biases that discourage their participation in computer

ce. Addressing these disparities requires fostering inclusive learning environments, implementing outreach programs, and promoting initiatives that encourage girls and minorities to pursue computer science education and careers.

**Collaboration and Knowledge Sharing:** Collaboration and knowledge sharing play a vital role in addressing global challenges in computer science transition. Countries can learn from each other's experiences, best practices, and innovative approaches. International partnerships, forums, and conferences can facilitate cross-border collaboration, enabling educators and policymakers to exchange ideas, share resources, and collectively work towards overcoming common challenges.

**Conclusion:** The transition to computer science education in the digital era presents numerous challenges on an international scale. These challenges include curriculum development and adaptation, teacher training and professional development, infrastructure and access to resources, gender and diversity disparities, and the need for collaboration and knowledge sharing. By recognizing these challenges and implementing strategic solutions, countries can navigate the complexities of computer science transition more effectively. It is crucial for policymakers, educators, industry leaders, and international organizations to work together to create inclusive, innovative, and future-ready computer science education systems that empower students to thrive in the digital landscape.

## REFERENCES:

1. Домуладжанов, И. Х., Махмудов, С. Ю., Домуладжанова, Ш. И., & Полвонов, Х. М. (2020). Нормативы предельно допустимых выбросов вредных веществ в атмосферу от Кувасайского подсобного предприятия железобетонных изделий. *Universum: технические науки*, (4-1 (73)), 18-25.
2. Полвонов, Х. М., Хамдамова, Ш. Ш., Давлятова, З. М., & Ибрагимова, Г. О. К. (2019). Физико-химическое обоснование процесса получения хлорат-кальциевого дефолианта с использованием отходов содового производства. *Universum: технические науки*, (11-3 (68)), 14-26.
3. Полвонов, Х. М., Хамдамова, Ш. Ш., Давлятова, З. М., & Ибрагимова, Г. О. К. (2019). Физико-химическое обоснование процесса получения хлорат-кальциевого дефолианта с использованием отходов содового производства. *Universum: технические науки*, (11-3 (68)), 14-26.
4. Polvonov, X. (2011). Isothermal solubility diagram of the  $2\text{Na}^+$ ,  $\text{Mg}^{2+}$ || $2\text{Cl}^-$ ,  $2\text{ClO}_3^-$ — $\text{H}_2\text{O}$  quaternary system at 20 and 100° C. *Scienceweb academic papers collection*.

5. Polvonov, K. M. (2020). Technological calculations for calcium chlorate defoliant. Экономика и социум, (12-1), 224-230.
6. Жумабоев, А. Г., Базаров, А. А., & Полвонов, Х. М. (2020). Каталитик риформинг қурилмаларидан агфу-этан блоки қурилмасига “қуруқ газ” узатишида газ таркибидаги суюқ углеводородларни ажратиб олиш схемасини тадбиқ этиш. Science and Education, 1(3), 212-216.
7. Xayrullo o‘g’li, M. A., & Madaminovich, P. X. (2023). TUZLI TIZIMLARDA ERUVCHANLIK. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 1(10), 183-187.
8. Madaminovich, P. K. (2023). TECHNOLOGICAL CALCULATIONS FOR THE PRODUCTION OF LIQUID CHLORINE CALCIUM DEFOLIANT. Journal of Modern Educational Achievements, 5(5), 363-373.
9. Madaminovich, P. X., & Hamroqulovich, M. M. (2022). PROCESSING OF FISH AND FISH PRODUCTS. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 4, 212-215.
10. Xayrullo o‘g’li, M. A., & Madaminovich, P. X. (2022, April). TARKIBIDA KARBAMID, KALSIYNING XLORAT VA XLORIDLARI TUTGAN SUVLI TIZIMLARDA ERUVCHANLIKNI O ‘RGANISH. In E Conference Zone (pp. 153-156).
11. Polvonov, X. (2022). PRODUCTION OF LIQUID CALCIUM CHLORATECHLORIDE DEFOLIANT AND ABOUT THIS. Scienceweb academic papers collection.

**OLIY TA'LIM MUASSASLARI TALABALARIDA FUQOROLIK  
TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH**

**O.F.Hamrayeva**

*FDU o'qituvchisi*

**Nozimova Dilfuza Jahongir qizi**

*Geografiya yo'nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Fuqarolik tarbiyasi nima ekanligi va u fuqarolar uchun qanchalik kerakligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Fuqarolik tarbiyasi jamiyatda yashayotgan shaxslarning o'z huquq va burchlarini bilishi, tushunishi va amalda qo'llashi uchun juda muhimdir. Shunday ekan ushbu magola o'quvchilar uchun albatta foydali bo'ladi.*

**Kalit so'zlar:** *Fuqarolik, huquq va erkinliklar, huquqiy tarbiya, Konstitutsiya, yoshlar .*

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g'oyalari fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasida e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va huquqiy jamiyatni barpo etishdekezgu maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Har bir fuqaroning ijtimoiy, siyosiy, huquqiy faolligini yuzaga keltirish, huquqiy madaniyatini qaror toptirish fuqarolik jamiyatining asosiy talabi sanaladi. Fuqarolik tarbiyasi quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim. 1. Huquq va erkinliklar-Fuqarolik tarbiyasi insonga o'zining asosiy huquq va erkinliklarini o'rganish va himoya qilishda yordam berishi kerak. Bu huquqlarga so'z erkinligi, fikr erkinligi, e'tiqod erkinligi, tenglik, adolatli sudlov huquqi va shaxsiy daxlsizlik kiradi. 2. Demokratiya-Fuqarolik tarbiyasi demokratik qadriyatlarni o'rgatishi, demokratik jarayonlarda shaxslarning ishtirokini rag'banlantirishi kerak. Bu saylovlarda qatnashish, ovoz berish, nodavlat tashkilotlatiga a'zo bo'lish, norozilik bildirish huquqi kabi masalalar kiradi. 3. Majburiyatlar-Fuqarolik tarbiyasi shaxsning jamiyatdagi mas'uliyatini tushunishiga yordam berishi kerak. Bu majburiyatlarga soliq to'lash, atrof-muhitni muhofaza qilish, yo'l-harakat qoidalariga rioya qilish, inson huquqlarini hurmat qilish va jamiyatdagi boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish kiradi. 4. Adolat-Fuqarolik tarbiyasi insonlarga adolat tushunchasini tushunishga yordam berishi kerak. Bunga qonunning teng qo'llanilishi, adolatli sudlov, inson huquqlari va qonun ustuvorligi kabi masalalar kiradi. Shu sabablarga ko'ra fuqarolik tarbiyasi insonning jamiyatda yanada ongli, mas'uliyatli va erkin bo'lishiga ko'maklashadi va bu orqali yanada adolatli, demokratik va barqaror jami

yat barpo etishga hissa qo'shadi. Jamiyat tomonidan qonunchilik yo'li bilan belgilangan talablar fuqaro xulqini baholash, xatti-harakatlari mohiyatini yahlil qilish uchun mezon bo'lib xizmat qiladi ana shu talablarga muvofiq fuqaroning xulq-atvoridagi ayrim ko'rinishlar, harakatlaryoki odatlar ma'qullanadi yoki aksincha qoralanadi. Fuqarolik tarbiyasi bu fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, vatan, jamiyat manfaatlari yo'lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Fuqarolik tarbiyasining markaziy obyekti fuqarolik sanaladi. Fuqaro-fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat, davlat a'zosi bo'lgan shaxsdir. Fuqarolik esa huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondashuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublikdir. Huquqiy tarbiya-o'quvchilar o'rtasida fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda o'ziga xos o'rinn tutadi. 1993-yil mart oyida e'lon qilingan "Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiysi"da qayd etilganidek, "Huquqiy tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalari Konstitutsiyani, davlat haqidagi ta'limotni, chuinonchi, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy, nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirishdan, bolalarni davlat qununlarini yuksak darajada hurmat qilish, tartib va intizomni buzuvchilarga nisbatan murosasizlik ruhida tarbiyalash, Xalqaro tashkilotlar faoliyati haqida o'quvchilarning umumiylasavvurlarini shakllantirishdan iboratdir". Hozirgi yillarda O'zbekiston hududida fuqarolik tarbiyasi juda ham tuzatishlarga muhtojdir. Nima sababdan deganda o'z fuqarolik huquqlarini tushunmaydigan, bilmaydigan oilalar ko'payib bormoqda. Shu sababli fuqarolik tarbiyasi nima ekanligini jamiyatning kop sonli qismi bilishmaydi va hech qanday tushunchalarga ham ega emaslar. E'tibor berilgan bo'lsa ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda davlat siyosatida birinchi o'rinda fuqarolik tarbiyasi, vatanni sevish, jamiyatni hurmat qilish kabi g'oyalar ustuvor hisoblanadi. Misol uchun Yaponianing judaham tezlikda taraqqiy etganiga nazr tashlaydigan bo'lsak ularda xalqning juda jipslashib birikkaniga, xalq o'z vatanini qadrlashiga va fuqarolik tarbiyasi yuqori cho'qqidaligiga guvoh bo'lamiz. Albatta birinchi navbatda oilalarni o'zgartirish kerak, Chunki, oila o'zgarsagina jamiyat ham o'zgaradi. Farzand tarbiyasini birinchi o'rinda oiladan oladi. Shunday ekan har bir fuqaro islohot qilishni o'zidan boshlamog'i kerak. Fuqarolik tarbiyasini kamol toptirishda yoshlari, fuqarolar o'rtasida vatanparvarlik hissini uyg'otish va ayniqsa bu ishni bolalakdan boshlab singdirib borish maqsadga muvofiqdır. Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish uchun ma'lum shart -sharoitlarning mavjudligi taqozo etila

di : O'quv yurtida tashkil etilayotgan ta'limgan -tarbiya jarayoni yuksak darajada uyushtirilishi kerak; Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonining muvaffaqiyati o'qituvchi va o'quvchilar jamosining saviyasiga bog'liq; tarbiyaviy ishning rejali, uzlusiz, tizimli bo'lishiga erishish; oila,maktab vamahalla o'rtaida o'zaro hamkorlikning yuzaga kelishi fuqarolik tarbiyasining muvaffaqiyatini ta'minlaydi; o'quvchilarning axloqiy va huquqiy me'yorlar, umumiy tartibga qat'iy rioya etishga o'rganish, zimmasidagi birinchi to'laqonli ado etishlariga qaratish. Fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda suhbat, munozara, ma'ruza, bahslardan foydalanish, mashq, test, anketa savollariga javoblar olish kutilgan natijani qo'lgan kiritishga imkon beradi. Vatanparvarlik shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi hamda uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat hisoblanadi. Vatanparvar shaxs qiyofasida quyidagi sifatlar namoyon bo'ladi : Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, unga bo'lgan sadoqat. O'zi mansub bo'lgan millat o'tmishini, urf-odatlari, an'analari va qadriyatlariga sodiqlik. Vatan va millat tarixidan g'ururlanish. Yurtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish borasida g'amxo'rlik qilish. Vatan ravnaqi va millat taraqqiyoti yo'lida mehnat qilish. Vatan ozodligi va millat erkiga qilnayotgan har qanday tahdidiga qarshi kurashish. Vatan millat obro'i, sha'ni, or-nomusini himoya qilish. Vatan ravnaqi va millat taraqqiyotiga nisbatan ishonchga ega bo'lishi. Baynalmilallik o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazilmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma'naviy -axloqiy fazilatlardan biridir. Huquqiy ta'limgan-tarbiya uzlusiz jarayon bo'lib, yoshlikdan boshlab berib borilishi lozim. Bolalar oilada, maktabgacha ta'limgan muassasidayoq xulq-atvor qoidalaridan xabardor bo'lishi, ma'naviy va ba'zi huquqiy normalar to'g'risida boshlang'ich tushunchalar olishi, kelgusida bu bilimlar kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi aniq ifodalangan huquqiy xususiyat kasb etishi zarur. Shuning uchun 2000-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limgan muassasalari va umumiyoq o'rta ta'limgan turlarida bosqichma- bosqich huquq saboqlari, huquqiy bilim va tarbiya berib borilishi yo'lgan qo'yildi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki Tarbiyaning texnologiyaviyligi ta'limgan muassasalarida tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish va unga erishishga sharoit yaratadi, nazariy asoslangan uzlusiz davom etadigan tarbiyalash jarayonining shakllari; metodlari, usullari va vositalarini o'qituvchi to'g'ri tanlab natijalarga erishishini ta'minlaydi. U ilmiy modellashtirish (loyihalashtirish) asosida amalga oshir

iladi, modellashtirishda tarbiyaviy maqsadlar bir xil ma'noda beriladi hamda o'qituvchi tomonidan insonning shaxsiy xususiyatlari va sifatlarini rivojlantirishning muayyan bosqichlarini obyektiv ravishda o'lchash va baholash imkoniyatlarini yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Hamrayeva, O. F. Q. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), 537-544.
2. Hamroyeva, O. F. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KASBIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 985-991.
3. Abdixakimovich, X. K. (2023). PEDACOGIK HAMKORLIK ASOSIDA BO 'LAJAK OFITSERLARDA FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH. *Science and innovation*, 2(Special Issue 12), 538-541.
4. Ergasheva, N. M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARLARINING KOGNITIV KOMPETENTLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(11), 697-702.

**ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA TA'LIM TARBIYA  
MASALALARI**

**O.F.Hamrayeva**

*FDU o'qituvchisi*

**Ibrohimova Shahnoza Shuhratjon qizi**

*Geografiya yo'nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Mir Alisher Navoiyning ma'naviy merosini o'quvchilarga o'rgatish orqali o'quvchilarda kuzatiladigan ijobiylar ta'sirlarni yoritib berilgan. Shuningdek, Navoiy merosining ta'limiylar axloqiy va tarbiyaviy qarashlari haqida kerakli tushunchalar yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ma'naviy meros, kitob, ilmiy asar, ta'lim-tarbiya, badiiy adabiyot, turkiy tili, pedagogik g'oya.*

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va taffakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda tirkiy va forsiy tilde so'zlovchi biron bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. "Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir", I.Karimov.Sharq xalqlarining adabiyoti qanchalik chuqur o'rganilsa, bu xalqlar orasidagi adabiy aloqalar ham shunchalik ravshanroq ko'rina boradi. Adabiy aloqalarning o'rganilishi esa dohiy san'atkorlarning, adabiy maktab vakillarining ijodiy qudratini, ta'sir doirasini aniqlash uchun to'laroq tasavvur beradi. Bu jihatdan Navoiy merosini o'rganish alohida ahamiyatga egadir.

Navoiy merosini o'rganish yolg'iz o'zbek olimlarining vazifasi emas. Navoiy buyuk bir adabiy maktab boshlig'i sifatida dohiy Nizomiy kabi bir qancha xalqlarning adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatganligidan uning ijodini o'rganish ham keng bir sohani tashkil etadi. Dunyo sharqshunoslari Navoiy merosini o'zbek xalqining adabiyotini o'rganish maqsadida tekshirsalar, sharq xalqlari tadqiqotchilari butun hayotini xalq baxt-saodatiga bag'ishlagan bu ulug' san'atkorning hayoti va ijodini o'z madaniyatlarini o'z adabiyotlari tarixini chuqur o'rganish, o'zaro mushtaraklik tomonlarini aniqlash maqsadida o'rganishgan. Chunki Navoiy tojik, eron, hind madaniyatida buyuk bir madaniyat homiysi sifatida mashhur bo'lsa, ozarbayjon, turkman, qozoq, tatar, turk, qoraqalpoq xalqlari adabiyotida esa o'zin

ing kuchli ta'siririni ko'rsatgan .Alisher Navoiy turk dunyosi adabiyotining eng mashhur vakilidir .Chunki hech kim bu til va adabiyotning ravnaqi uchun uningdek xizmat qila olgan emas. Navoiy ijodi turkiy adabiyotning eng yuksak cho'qqisidir. Chunki hech kim unga qadar bu tilde bunchalik ko'p va xo'p (Bobur) yozmagan edi. Navoiy barcha xalqlarning eng buyuk shoiridir. Chunki u o'zini "Xito(y)dan to Xuroson" gacha yoyilgan turkiy qavmlarning o'z shoiri, deb bildi. Ularni bir adabiy til bayrog'i ostida birlashtirdi, "yakqalam" qildi.Bu bilan millatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy ravnaqiga buyuk ta'sir ko'rsatdi.

Navoiy asarlarining umuminsoniy g'oyasi - insonparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik, do'stlik, tinchlik, mehr va sadoqat, pok sevgi va vafo, ma'rifatlilik kabi go'zal tuyg'ularning yuksak badiiy shaklda ifodalashi orqali o'zbek adabiyoti shuhratini dunyo miqyosiga olib chiqdi. Buyuk alloma, shoir Alisher Navoiy umuminsoniy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo'lsa ham, o'zining bu haqidagi fikrlarini turli ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan. Alisher Navoiy o'zining umuminsoniy tarbiya to'g'risidagi fikrlarini badiiy asarlarida barkamol inson obrazini yaratish yo'li bilan bayon etdi.

Alisher Navoiyning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g'oyalari bosh o'rinda turadi. Alisher Navoiyning fikricha, inson dunyoda hamidan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiy o'z davridagi barcha sof vijdonli insonlarning manfaatini himoya qildi. U inson uchun zarur bo'lgan umuminsoniy axloq qoidalarini o'rgandi, asar qahramonlari obrazida o'z qarashlarini aks ettirdi. Alisher Navoiy odamlarni axloqli va odobli bo'lishga da'vat etadi hamda axloqni bunday ta'riflaydi: " Ahloq shaxsning og'ir baqolig' libosidir va libos jismning sangin debosi. Shuning bilan birga odamni bezaydigan ham axloqdir".

Alisher Navoiyning fikricha, inson uchun toj, davlat va boshqalar emas, balki eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir. Alisher Navoiy xalqqa ish bilan ham, so'z bilan ham foyda keltirish kerakligini aytadi. U xalq manfaati uchun ishlaydigan, xalqning baxt-saodati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy odam deb biladi:

Odamni ersang demagil odami,

Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.

Xalqqa yordam berishni istamaydigan, xudbin, qora ko'ngil odamlarni Alisher Navoiy eng yomon odam, xalqqa zarar yetkazadi deb ta'riflaydi.

El qochsa birovdin el yomoni bil oni,

Ahvolida idbor nishoni bil oni.

Fe'l ichra ulus bolam joni bil oni,

Olam elining yomoni yomon bil oni.

Insonlar bir-birlari bilan do'st-inoq va hamjihat bo'lib yashamas ekanlar, o'z orzu-niyatlariga yeta olmaydilar, yakkalik, yolg'izlik bilan hech qanday ish qilib bo'lmaydi, shuning uchun ham u hamma insonlarni do'st bo'lib yashashga chorlaydi. Alisher Navoiy do'stlikni ulug'laydi, shu bilan birga soxta, g'araz bilan do'st bo'lувчи kishilarni qoralaydi.

Navoiy ilm-ma'rifatni qadrlagan va unga homiylik qilgan. Shoir insonning ma'naviy kamolotini, avvalo, uning ilm va donish sohibi bo'la olganligida deb biladi. Ilm o'zidan o'zi bo'lmaydi, kishi faqat havas va ishtiyoyq bilangina ilmgaga ega bo'la oladi, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy hikmatlarida olam- olam ma'no mujassamdir. Uning hikmatlarida ilm-ma'rifat, mehr- oqibat, insoniylik kabi masalalar markaziy o'rinni egallaydi.

Birovkim qilsa olimlarga ta'zim,

Qilur go'yoki payg'ambarga ta'zim.

Shoir olim ahlini qadrlaydi, ulug'laydi. Olimlarga ta'zim qilish- payg'ambarga ta'zim qilsh bilan barobar ekanligini ta'kidlaydi. Jumladan:

Oz-oz o'rganib dono bo'lur,

Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

Navoiy kishi bilimga ega bo'lishi uchun oz-ozdan o'rganib borishi lozimligini, bilimlari yig'ilib ma'lum ko'nikmaga ega bo'lishi mumkinligini yozadi va buni tomchi-tomchi sivlar yig'ilib daryoga aylanishiga o'xshatadi.

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamat bo'lmas ado aning haqin yuz ganj ila.

Ushbu jumlalarda birinchi ustoz haqida gap boradi. Ilk ustoz tolibiga savod chiqarishida ko'maklashadi, bu bilan uning hayot yo'lini- to'g'ri yo'lni belgilab beradi. Ustozning bu xizmatini yuzlab xazinalar bilan ham to'lay olmaslikni Navoiy shu ikki misrada bayon qiladi.

Odamiylikning mezoni bu faqat o'zi uchun emas, balki, o'zgalar manfaati , xalq g'am- tashvishi bilan yashashdir. Binobarin, axloq targ'ibotchisining navbatdagi tanbehi ham yaxshilik xususida:

"Baxlning andoqliki, butun topqoni zaxira bo'lg'ay, tong va qabri ham bu kungi maoshi uyidek tiyra bo'lg'ay. Zuhdu taqvo barcha vaqtda dilpisanddur, ulug'lar nazarida arjumandroq . Yaxshiliq va yomonliqni kim qildikim, jazo ko'rmadi. Saloh va fasod tuxmin kim ekdikim, o'rmadi".

Shoir insonga xos qusurlar va hislatlar haqidagi fikrini quyidagi bayt bilan yanada oydinlashtiradi va qissadan hissa chiqaradi:

Yaxshiliq tuxmin sochg'ilkim budur dehqong'a so'z,

Har nekim ekding bugun borin hamon tut oning ko'z.

Alisher Navoiy ilm o'rganishga intilishni inson kamolotini ta'minlash uchun xizmat qiluvchi eng zarur fazilatlardan biri deb biladi. Ilmni insonni, xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqazuvchi omil sifatida ta'riflaydi. Asarlari mazmunida ilgari surilgan g'oyalar yordamida kishilarni ilmli va ma'rifatli bo'lishga undaydi. Mutafakkir ilm o'rganishni har bir kishining insoniy burchi deya e'tirof etadi. Zero, ilm o'rganishdan maqsad ham xalqning farovon, baxtli-saodatli hayot kechirishini, mamlakatning obod bo'lishini ta'minlashga hissa qo'shishdir, deya ta'kidlaydi. Bilimli va dono kishilar hamisha o'z xalqining manfaati hamda mamlakatining ravnaqi yo'lida faoliyat olib borishlariga ishonadi.

Mazkur o'rinda Mirzo Ulug'bekni ana shunday xislatga ega bo'lgan kishilardan biri bo'lganligiga urg'u beradi hamda uning nomi tarix sahifalarida abadiy saqlanib qoladi, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy orzu qilgan komil inson faqat ilmli bo'lish bilan qanoatlanib qolmaydi. Uni yetuk inson sifatida ta'riflash uchun unda, yana shuningdek, sabr-qanoat, saxiylik, himmat, to'grilik, rostgo'ylik, tavoze, adab, vafo va hokazo sifatlarning ham mavjud bo'lishi taqozo etiladi.

Mutafakkir axloqlilikning eng muhim mezoni odob deb hisoblaydi. Odobli, axloqli bo'lish insonga atrofdagi kishilar o'rtasida muayyan mavqe hamda hurmatga sazovor bo'lishga yordam beradi. Odobga ega bo'lishning inson hayotidagi rolini ko'rsatib berar ekan, Muomala madaniyati, o`zini tuta bilishini nazorat qilishi kerak. Har bir tarbiyachining dunyoqarashi uning muomalasida namoyon bo`ladi. Muomalaning asosiy vositasi – tildir. Alisher Navoiyni pedagog-mudarris deb atashimiz mumkin. Chunki ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berib, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko'rsatib o'tadi. U ta'limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib olgan buyuk pedagogdir. Chunki boqiy hayotga intilgan Navoiy fikricha, dono inson o`zining kuchquvvatiga aql-u zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong`ulikni yoritadigan chiroq, hayot yo`lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko`rsa-tadigan olim sifatida ta'riflaydi. Bu fikrni "Nazm ul-javohir" asarida: Kim olim esa nuqtada barhak de oni, Gap bazm tuzar bihishti mutlah de oni, Har kimsaki yo`q ilmga anga ahmoq de oni, Majlisdaki ilm bo`lsa uchmas de oni. Yoki ilmli, aqli odam o'z maqsadiga erishish uchun har qanday qiyinchilikka ham chidaydi, kim ilmni o`ziga tayanch qilib olsa, u hech qachon qoqilmaydi, xor bo`lmaydi va ilmning vazifasi inson baxt-saodatiga xizmat qilishdir, deb ta'kidlaydi. Demak, Alisher Navoiy o`zining badiiy asarlari bilan bir qatorda ta'limiy-axloqiy asarlarida o`zi orzu etgan komil insonga xos axloqiy fazilatlari deb qanoat,adolat, saxovat, himmat, muruvvat, vafo, to`g`rilik, rostgo'ylik va boshqalarni tushungan, ana shu xislatlar tarkib topgan insonga

yom

onlik razillik bo`lmasligi, bunday inson yashagan jamiyat ham ravnaq topishi, barcha xalq baxt-saodatga erishish mumkin, deb hisoblagan. Alisher Navoiy odamlarni axloqli va odobli bo`lishga da`vat etadi hamda hamda axloqni bunday ta`riflaydi . “Ahloq shaxsning og`ir baqolig` libosidir va libos jismning sangin debosi . Shuning bilan birga odamni bezaydigan ham axloqdir ” Alisher Navoiyhikmatlaridan olam –olam ma`no mujassamdir . Uning hikmatlarida ilm – ma`rifat , mehr – oqibat , insoniylik kabi masalalar markaziy o`rinni egallaydi . Birov kim qilsa olimlarga ta`zim , Qilur go`yoki payg`ambarga ta`zim . Shoир olim ahlini qadrlaydi , ulug`laydi . Olimlarga ta`zim qilish – payg`ambarga ta`zim qilish bilan barobar ekanligini ta`kiddaydi .

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning komil insonni shakllantirishga oid fikrlari, uning ta`limiy-axloqiy qarashlari pedagogik fikr taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Allomaning pedagogik qarashlari ozidan oldin otgan olimlarning bu boradagi ilgor ta`limotiga, shuningdek, komil insonni tarbiyalashga oid an'anaviy Sharq xalqlari ta`lim-tarbiya yoriqlariga asoslanadi. Alisher Navoiy ta`lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini korsatadi. U ta`limda ilmiylikka asoslanganlik tarixiylik kabi talablarni asos qilib oladi. Oz davridagi muslimon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi.

### **ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Hamrayeva, O. F. Q. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1), 537-544.
2. Hamroyeva, O. F. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KASBIY-KOMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 985-991.
3. Abdixakimovich, X. K. (2023). PEDAGOGIK HAMKORLIK ASOSIDA BO 'LAJAK OFITSERLARDA FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH. Science and innovation, 2(Special Issue 12), 538-541.
4. Ergasheva, N. M. (2023). MAK TABGACHA TA'LIM TASHKIL OTI RAHBARLARINING KOGNITIV KOMPETENTLIGI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(11), 697-702.

## AUTOMATING THE HEALTHCARE SYSTEM MANAGEMENT PROCESS

Eshonov Ravshanbek Mukhammadmusayevich

*Teacher at Medical university in Fergana*

**Annotation:** In this article, Health System Management Process Automation. scientific research about

**Keywords:** health, management, hinder, doctor, technology.

The healthcare system management process can be complex and time-consuming. In this guide, we will explore the challenges faced in healthcare system management, the benefits of automation, key technologies for implementing automation, steps for successful implementation, considerations for data security and privacy, and conclude with future prospects.

### Challenges in healthcare system management

The healthcare industry faces numerous challenges in managing complex systems. From patient data management to scheduling and billing, manual processes can lead to errors and inefficiencies. These challenges hinder the delivery of quality care and increase administrative burdens. Automating the healthcare system management process offers a solution to these challenges.

### Benefits of automating the process

**Improved Efficiency.** Automation streamlines processes, reducing the need for manual intervention and improving overall efficiency. This allows healthcare providers to focus more on delivering patient care.

**Cost Savings.** Automating healthcare system management helps reduce operational costs by minimizing paperwork, eliminating duplicate tasks, and optimizing resource allocation.

### Enhanced Accuracy

Automation reduces the risk of human errors, ensuring accurate and consistent management of healthcare systems. This leads to improved patient outcomes and increased patient satisfaction.

### Key technologies for automation

**Artificial Intelligence (AI).** AI technology enables intelligent automation in healthcare system management. It can assist in tasks such as data analysis, predictive modeling, and decision support, improving efficiency and accuracy.

**Robotic Process Automation (RPA).** RPA can automate repetitive and rule-base

d tasks, such as data entry and appointment scheduling. It frees up valuable time for healthcare professionals while maintaining accuracy and consistency.

**Internet of Things (IoT).** IoT devices can collect real-time data, enabling remote patient monitoring, asset tracking, and inventory management. Integrating IoT with healthcare systems enhances efficiency and improves patient care.

**Implementation steps for automation. Assess Current Processes.**

Gain a comprehensive understanding of the existing healthcare system management processes. Identify pain points and areas that can benefit from automation.

**Plan and Prioritize.** Create a roadmap for automation, prioritizing processes based on their impact and feasibility. Set clear goals and define success metrics for each implemented automation solution.

**Choose the Right Solution.** Select technology solutions that align with your specific needs and integrate well with existing systems. Collaborate with vendors and IT experts to ensure a smooth implementation.

**Considerations for data security and privacy.** When automating healthcare system management, it is crucial to prioritize data security and privacy. Implement robust encryption, access controls, and comprehensive data sharing agreements with strict adherence to regulations such as HIPAA. Regular audits and training should be conducted to ensure compliance and protect sensitive patient information.

**Conclusion and future prospects.** Automating the healthcare system management process is a transformative step towards improving efficiency, reducing costs, and enhancing patient care. As technology advances, we can expect further integration of AI, RPA, and IoT in healthcare systems. It is vital for healthcare providers to embrace automation to meet the evolving needs of the industry and ensure the delivery of high-quality care.

**REFERENCES:**

1. Райимова, З. М., Холматова, Е. Н., Эшонов, Р. М., & Умирзаков, О. Э. (2021). БОРЬБА С НОВОЙ ЭПИДЕМИЕЙ КОРОНАВИРУСА ВО ВСЕМ МИРЕ И В УЗБЕКИСТАНЕ. Экономика и социум, (4-2 (83)), 328-331.
2. Muhammadsayevich, E. R. (2022, April). KO'ZNING KAMCHILIKLARI VA TIBBIYOTDAGI DAVO CHORALARI. In E Conference Zone (pp. 124-126).
3. Ravshanbek, E. (2023). OPTICAL PART OF THE EYE AND RELATED DISEASES. World Bulletin of Public Health, 19, 180-181.
4. Eshonov, R. M., Axmadaliyeva, G. H., & Nosirov, N. V. (2023, November). BIOTIBBIYOT MUHANDISLIGI QO'YILADIGAN TALABLAR. In Fergana state university conference (pp. 148-148).
5. GOZIEV, R., & Çelik, F. A. T. İ. H. (2022). TÜRKİYE'DE VE ORTA ASYA'DA İLK SİYASİ PARTİLERİN OLUŞUMU: JÖN TÜRKLER VE CEDİTLER. Pamukkale Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, (53), 269-282.
6. Жумабоев, А. Г., Базаров, А. А., & Полвонов, Х. М. (2020). Каталитик риформинг қурилмаларидан агфу-этан блоки қурилмасига “қуруқ газ” узатишида газ таркибидаги суюқ углеводородларни ажратиб олиш схемасини тадбиқ этиш. Science and Education, 1(3), 212-216.
7. Xayrullo o'g'li, M. A., & Madaminovich, P. X. (2023). TUZLI TIZIMLARDA ERUVCHANLIK. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 1(10), 183-187.
8. Madaminovich, P. K. (2023). TECHNOLOGICAL CALCULATIONS FOR THE PRODUCTION OF LIQUID CHLORINE CALCIUM DEFOLIANT. Journal of Modern Educational Achievements, 5(5), 363-373.
9. Madaminovich, P. X., & Hamroqulovich, M. M. (2022). PROCESSING OF FISH AND FISH PRODUCTS. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 4, 212-215.
10. Xayrullo o'g'li, M. A., & Madaminovich, P. X. (2022, April). TARKIBIDA KARBAMID, KALSIYNING XLORAT VA XLORIDLARI TUTGAN SUVLI TIZIMLARDA ERUVCHANLIKNI O'RGANISH. In E Conference Zone (pp. 153-156).
11. Polvonov, X. (2022). PRODUCTION OF LIQUID CALCIUM CHLORATECHLORIDE DEFOLIANT AND ABOUT THIS. Scienceweb academic papers collection.

12. Melibaevnaa, B. K., & Toshtemirovna, M. K. (2023). PNEUMONIA IN NEWBORN BABIES ON VENTILATORS. World Bulletin of Social Sciences, 19, 16-17.
13. Mahmudova, H. T. (2022). FEATURES OF PROVIDING HIGHLY SPECIALIZED MEDICAL CARE TO PREGNANT WOMEN WITH COVID-19 IN OBSTETRIC PRACTICE. Scientific Impulse, 1(5), 1329-1332.
14. Mahmudova, H. T. (2022). BEMORLARNI PARVARISH QILISHNING AHLOQIY ME'YORLARI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 218-221.
15. Maxmudova, X. T. (2022). TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA TIBBIY FANLARNI O'QITISHNING INTERFAOL USULLARINI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 826-830.
16. Абдуллаев, Ш. В., Маматкулова, С. А., & Назаров, О. М. (2019). Компонентный состав экстрактов *Raphanus sativus* L. произрастающего в Узбекистане. Universum: химия и биология, (8 (62)), 29-31.
17. Abdurakhmamov, G., Zakhidov, R. A., Vakhidova, G. S., & Mamatkulova, S. A. (2010). On the criteria of efficiency of power supply to individual households using thermo-and photovoltaic converters. Applied Solar Energy, 46, 165-168.
18. Mamatqulova, S. A., Dexqanov, R. S., & Abdullayev, S. V. (2020). DESIGNATING SOME FRUITS AND VEGETABLES ACCORDING TO FEAN NG. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(2), 94-101.
19. Mamatqulova, S. A., Dexqanov, R. S., & Abdullayev, S. V. (2020). CLASSIFICATION AND CERTIFICATION OF BIOLOGICALLY ACTIVE SUBSTANCES BY THE CHEMICAL COMPOSITION Isolated from HELIANTHUS TUBEROSUS PLANT BY TIFN TN. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(2), 70-77.
20. Abdusamatovna, M. S., Voksidovich, A. S., Mukhammadzokir, N. R., & Ulmasbek, M. U. (2021). Description of Organic Substances in the Roots of Turpa *Brassica Rapa* L. 1753 Family. JournalNX, 7(03), 411-413.
21. Абдуллоев, О. Ш., Абдуллаев, Ш. Х., Аскаров, И. Р., & Абдуллаев, Т. Х. (2016). КВАНТОВО-ХИМИЧЕСКИЙ РАСЧЁТ СТРУКТУРЫ И КОЛЕБАТЕЛЬНОГО СПЕКТРА ГЕТЕРОЯДЕРНОГО ГЛИЦИНОВОГО м 3-ОКСОКЛАСТЕРА [Fe+ 3 2 Ni+ 2 O (NH<sub>2</sub> CH<sub>2</sub> COO)<sub>6</sub> (H<sub>2</sub>O<sub>3</sub>)]. Вестник Таджикского национального университета. Серия естественных наук, (1-4), 80-88.

## RUS TILI TARIXI

Nodirova Xursanoy Ibragimovna

*Toshkent davlat stomatologiya instituti akademik litseyi Rustili va adabieti fani  
oqituvchisi.*

Rus tili- Sharqiy slavyan tillaridan biri, dunyodagi eng katta tillardan biri, rus xalqining milliy tili. Bu slavyan tillarining eng keng tarqalgani va geografik jihatdan ham, ona tilida so'zlashuvchilar soni bo'yicha ham Evropada eng keng tarqalgan tildir (garchi rus tili hududining muhim va geografik jihatdan katta qismi Osiyoda joylashgan bo'lsa ham). Rus tili fani lingvistik russhunoslik yoki qisqasi, oddiygina russhunoslik deb ataladi.

« Rus tilining kelib chiqishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Taxminan miloddan avvalgi 2000-1000 ming yillar. e. turdosh shevalar guruhidan Hind-yevropa oilasi tillarda proto-slavyan tili ajralib turadi (keyingi bosqichda - taxminan I-VII asrlarda - proto-slavyan deb ataladi). Proto-slavyanlar va ularning avlodlari, proto-slavyanlar qayerda yashaganligi bahsli savol. Ehtimol, 1-asrning ikkinchi yarmida proto-slavyan qabilalari. Miloddan avvalgi e. va N boshida. e. Ular sharqda Dneprning o'rta oqimidan g'arbda Vistulaning yuqori oqimigacha bo'lgan yerlarni, shimolda Pripyat janubida, janubda o'rmon-dasht rayonlarini egallagan. Protoslavyanlar hududi keskin kengaydi. VI-VII asrlarda. Slavlар Adriatikadan janubi-g'arbgacha bo'lgan yerlarni egallagan. shimoli-sharqda Dnepr va Ilmen ko'li boshiga. Protoslavyan etno-lingvistik birligi buzildi. Bir-biriga yaqin bo'lgan uchta guruh shakllandi: sharqiy (qadimgi rus millati), g'arbiy (ular asosida polyaklar, chexlar, slovaklar, lusatiyaliklar, pomeraniyalik slavyanlar tashkil topgan) va janubiy (uning vakillari bolgarlar, serb-xorvatlar, slovenlar, makedoniyaliklar). .

Sharqiy slavyan (eski rus) tili 7—14-asrlarda mavjud bo'lgan. X asrda. uning asosida yozuv paydo bo'ladi (kirill alifbosi, kirill alifbosiga qarang), u yuqori gullahsga erishdi (Ostromir Xushxabari, XI asr; Kiev mitropoliti Hilarionning "Qonun va inoyat haqidagi so'zi", XI asr; "O'tgan yillar haqidagi ertak" ", XII asr boshlari. ; "Igorning yurishi haqidagi ertak", XII asr; Russkaya pravda, XI-XII asrlar). Kiev Rusida (IX - XII asr boshlari) qadimgi rus tili ba'zi Boltiqbo'yi, Fin-Ugr, turkiy va qisman Eron qabilalari va millatlari uchun aloqa vositasiga aylandi. XIV-XVI asrlarda. adabiy tilning janubi-g'arbiy xilma-xilligi Sharqiy slavyanlar davlat tili edi va Pravoslav cherkovi Litva Buyuk Gertsogligida va Moldaviya Knyazligida. Dialektlarning parchalanishiga hissa qo'shgan feodal tarqoqlik, mo'g'ul-tatar bo'yinturug'i (XIII-XV asrlar), Polsha-Litva istilolari XIII-XIV asrlarga olib keldi

. qadimgi rus xalqining qulashiga. Qadimgi rus tilining birligi ham asta-sekin parchalanib ketdi. O'zlarining slavyan o'ziga xosligi uchun kurashgan uchta yangi etno-lingvistik birlashmalarning markazi shakllandi: shimoliy-sharqiy (buyuk ruslar), janubiy (ukrainlar) va g'arbiy (belaruslar). XIV-XV asrlarda. Ushbu uyushmalar asosida bir-biriga yaqin, ammo mustaqil Sharqiy slavyan tillari shakllanadi: rus, ukrain va belarus.

Moskva Rusi davridagi rus tili (XIV-XVII asrlar) mavjud edi murakkab tarix. Dialekt xususiyatlari rivojlanishda davom etdi. Ikkita asosiy dialekt zonalari shakllandi - Shimoliy Buyuk Rus (Pskov-Tver-Moskva chizig'idan taxminan shimolda, Nijniy Novgoroddan janubda) va Janubiy Buyuk Rus (shu chiziqdandan janubda Belorus va Ukraina viloyatlarigacha) dialektlari, ular boshqa dialekt bo'linmalari bilan bir-biriga yopishgan. O'rta rus dialektlari paydo bo'ldi, ular orasida Moskva lahjasи etakchi rol o'ynay boshladi. Dastlab u aralash edi, keyin u uyg'un tizimga aylandi.

Yozma til rang-barangligicha qolmoqda. Din va ilmiy bilim asoslariga asosan rus tilining sezilarli ta'sirini boshdan kechirgan, mashhur so'zlashuv elementidan uzelgan qadimgi bolgar tilidagi slavyan kitobi xizmat qilgan. Davlatchilik tili (ishbilarmonlik tili deb ataladigan) rus xalq nutqiga asoslangan edi, lekin hamma narsada u bilan mos kelmadı. Rivojlandi nutq shtamplari, ko'pincha sof kitobiy elementlarni o'z ichiga oladi; uning sintaksisi og'zaki tildan farqli o'laroq, ancha tartibli, noqulay edi murakkab jumlalar; dialekt xususiyatlarining unga kirib borishi standart umumrossiya me'yorlari tomonidan asosan to'xtatildi. Til vositalari jihatidan xilma-xil yozilgan fantastika. Qadim zamonlardan beri muhim rol o'ynagan so'zlashuv tili XVI-XVII asrlargacha xizmat qilgan folklor. aholining barcha qatlamlari. Buni qadimgi rus yozuvida aks ettiradi (Belgorod jeli haqidagi ertaklar, Olga qasosi haqidagi ertaklar, "O'tgan yillar haqidagi ertak" dagi folklor motivlari, "Igoring yurishi haqidagi ertak" dagi folklor motivlari, Daniil Zatochnikning ibodatidagi yorqin frazeologiya va boshqalar ), shuningdek, zamonaviy doston, ertak, qo'shiq va og'zaki xalq amaliy san'atining boshqa turlarining arxaik qatlamlari. 17-asrdan beri folklor asarlarining birinchi yozuvlari va folkloarning kitob taqlidlari boshlanadi, masalan, 1619-1620 yillarda ingliz Richard Jeyms uchun yozilgan qo'shiqlar, Kvashnin-Samarinning lirik qo'shiqlari, "Baxtsizlik tog'idagi ertak" va boshqalar. Til vaziyatining murakkabligi yagona va barqaror normalarni ishlab chiqishga yo'l qo'ymaslik. Yagona rus adabiy tili yo'q edi.

17-asrda milliy rishtalar paydo bo'ladi, rus millatining poydevori qo'yiladi. 1708 yilda fuqarolik va cherkov slavyan alifbolari ajratildi. XVIII va XIX asr boshlarida. dunyoviy yozuv keng tarqaldi, cherkov adabiyoti asta-sekin ikkinchi o'ringa tashl

andi va nihoyat diniy urf-odatlarning ko‘p qismiga aylandi va uning tili o‘ziga xos cherkov jargoniga aylandi. Ilmiy-texnikaviy, harbiy, dengizchilik, ma’muriy va boshqa terminologiya jadal rivojlandi, bu rus tiliga G’arbiy Evropa tillaridan so’z va iboralarning katta oqimini keltirib chiqardi. Ayniqsa, XVIII asrning ikkinchi yarmidan katta ta’sir ko’rsatdi. Fransuz tili ruscha lug’at va frazeologiyani bera boshladi. Geterogen lingvistik elementlarning to’qnashuvi va umumiy adabiy tilga bo’lgan ehtiyoj yagona milliy til me’yorlarini yaratish muammosini qo’ydi. Bu normalarning shakllanishi turli oqimlarning keskin kurashida kechdi. Jamiyatning demokratik fikrdagi qatlamlari adabiy tilni xalq nutqiga yaqinlashtirishga intildi, reaktsion ruhoniylar oddiy xalq uchun tushunarsiz bo’lgan arxaik “sloven” tilining sofligini saqlashga harakat qildilar. Shu bilan birga, jamiyatning yuqori qatlamlarida xorijiy so’zlarga haddan tashqari ishtiyoq boshlandi, bu rus tilini yopish bilan tahdid qildi. M.V.ning til nazariyasi va amaliyoti. Lomonosov, rus tilining birinchi batafsil grammatikasining muallifi, u turli nutq vositalarini maqsadiga qarab taqsimlashni taklif qilgan. adabiy asarlar yuqori, o’rta va past “tinchlanish” ga. Lomonosov, V.K. Trediakovskiy, D.I. Fonvizin, G.R. Derjavin, A.N. Radishchev, N.M. Karamzin va boshqa rus yozuvchilari A.S.ning buyuk islohotiga yo'l ochdilar. Pushkin. Pushkinning ijodiy dahosi sintezlangan yagona tizim turli nutq elementlari: rus xalqi, cherkov slavyan va g’arbiy Evropa va rus xalq tili, ayniqsa uning Moskva xilma-xilligi tsement asosiga aylandi. Zamonaviy rus adabiy tili Pushkindan boshlanadi, boy va rang-barang til uslublari (badiiy, publitsistik, ilmiy va boshqalar) bir-biri bilan chambarchas bog’liq, umumiy rus tilining fonetik, grammatik va leksik me’yorlari aniqlangan, ular adabiy tilni biladigan barcha uchun majburiydir. til, leksik tizim. Rus adabiy tilining rivojlanishi va shakllanishida 19—20-asr rus yozuvchilari muhim rol o‘ynadi. (A.S.Griboedov, M.Yu.Lermontov, N.V.Gogol, I.S.Turgenev, F.M.Dostoyevskiy, L.N.Tolstoy, M.Gorkiy, A.P.Chexov va boshqalar). XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab. adabiy tilning rivojlanishi va uning funksional uslublari – ilmiy, publitsistik va boshqalar shakllanishiga jamoat arboblari, fan va madaniyat namoyandalari ta’sir qila boshlaydi.

Zamonaviy rus adabiy tilining neytral (stilistik rangsiz) vositalari uning asosini tashkil qiladi. Qolgan shakllar, so’zlar va ma’nolar stilistik rangga ega bo’lib, tilga har xil ekspressivlik soyalarini beradi. Adabiy tilning yozma xilma-xilligida engillik, ba’zi qisqargan nutq funktsiyalarini bajaradigan va kundalik nutqda neytral bo’lgan so’zlashuv elementlari eng keng tarqalgan. Biroq, so’zlashuv nutqi komponent adabiy til maxsus til tizimi emas.

Adabiy tilning stilistik rang-barangligining umumiy vositasi xalq tilidir. U ham tilni

ng so'zlashuv vositalari kabi ikkilikdir: adabiy tilning organik qismi bo'lgan holda, ayni paytda undan tashqarida ham mavjud. Tarixiy jihatdan xalq tili adabiy tilning og'zaki xilma-xilligi me'yorlari hali shakllanmagan bir davrda kitobiy tilga qarshi chiqqan shahar aholisining eski so'zlashuv va kundalik nutqiga borib taqaladi. Eski so'zlashuv va kundalik nutqni aholining o'qimishli qismi adabiy tilining og'zaki xilma-xilligiga va xalq tiliga bo'linishi taxminan 18-asr o'rtalarida boshlangan. Kelajakda xalq tili asosan savodsiz va yarim savodli fuqarolarning muloqot vositasiga aylanadi va adabiy til ichida uning ayrim xususiyatlari yorqin stilistik rang berish vositasi sifatida ishlataladi.

Rus tilida shevalar alohida o'rinni tutadi. Umumjahon ta'limgar sharoitida ular tezda yo'q bo'lib ketadi, ularning o'rnini adabiy til egallaydi. Uning arxaik qismida zamonaviy lahjalar ikkita katta dialektni tashkil qiladi: Shimoliy Buyuk Rus (Okanye) va Janubiy Buyuk Rus (Akanye) oraliq o'tish o'rta O'rta Buyuk Rus dialekti bilan. Kichikroq birliklar mavjud, ular lahjalar (yaqin dialektlar guruhlari) deb ataladi, masalan, Novgorod, Vladimir-Rostov, Ryazan. Ushbu bo'linish o'zboshimchalik bilan amalga oshiriladi, chunki individual dialekt xususiyatlarini taqsimlash chegaralari odatda mos kelmaydi. Dialekt belgilarining chegaralari turli yo'nalishlarda rus hududlarini kesib o'tadi yoki bu xususiyatlar faqat uning bir qismida taqsimlanadi. Yozuv paydo bo'lgunga qadar shevalar til mavjudligining universal shakli edi. Adabiy tillarning paydo bo'lishi bilan ular o'zgarib, o'z kuchini saqlab qoldi; aholining katta qismining nutqi dialektal edi. Madaniyatning rivojlanishi, milliy rus tilining paydo bo'lishi bilan lahjalar asosan qishloq aholisining nutqiga aylandi. Zamonaviy rus dialektlari o'ziga xos yarim dialektlarga aylanib bormoqda, ularda mahalliy xususiyatlar adabiy til normalari bilan uyg'unlashadi. Dialektlar adabiy tilga doimo ta'sir ko'rsatgan. Dialektizmlardan yozuvchilar hozirgacha stilistik maqsadlarda foydalanadilar.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Домуладжанов, И. Х., Махмудов, С. Ю., Домуладжанова, Ш. И., & Полвонов, Х. М. (2020). Нормативы предельно допустимых выбросов вредных веществ в атмосферу от Кувасайского подсобного предприятия железобетонных изделий. Universum: технические науки, (4-1 (73)), 18-25.
2. Полвонов, Х. М., Хамдамова, Ш. Ш., Давлятова, З. М., & Ибрагимова, Г. О. К. (2019). Физико-химическое обоснование процесса получения хлорат-кальциевого дефолианта с использованием отходов содового производства. Universum: технические науки, (11-3 (68)), 14-26.
3. Полвонов, Х. М., Хамдамова, Ш. Ш., Давлятова, З. М., & Ибрагимова, Г. О. К. (2019). Физико-химическое обоснование процесса получения хлорат-кальциевого дефолианта с использованием отходов содового производства. Universum: технические науки, (11-3 (68)), 14-26.
4. Polvonov, X. (2011). Isothermal solubility diagram of the  $2\text{Na}^+$ ,  $\text{Mg}^{2+}$ || $2\text{Cl}^-$ ,  $2\text{ClO}_3^-$ — $\text{H}_2\text{O}$  quaternary system at 20 and 100° C. Scienceweb academic papers collection.
5. Polvonov, K. M. (2020). Technological calculations for calcium chlorate defoliant. Экономика и социум, (12-1), 224-230.
6. Жумабоев, А. Г., Базаров, А. А., & Полвонов, Х. М. (2020). Каталитик риформинг қурилмаларидан ағфу-этан блоки қурилмасига “қуруқ газ” узатишида газ таркибидаги суюқ углеводородларни ажратиб олиш схемасини табдиқ этиш. Science and Education, 1(3), 212-216.
7. Melibaevnaa, B. K., & Toshtemirovna, M. K. (2023). PNEUMONIA IN NEWBORN BABIES ON VENTILATORS. World Bulletin of Social Sciences, 19, 16-17.
8. Mahmudova, H. T. (2022). FEATURES OF PROVIDING HIGHLY SPECIALIZED MEDICAL CARE TO PREGNANT WOMEN WITH COVID-19 IN OBSTETRIC PRACTICE. Scientific Impulse, 1(5), 1329-1332.
9. Mahmudova, H. T. (2022). BEMORLARNI PARVARISH QILISHNING AHLOQIY ME'YORLARI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 218-221.
10. Maxmudova, X. T. (2022). TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA TIBBIY FANLARNI O'QITISHNING INTERFAOL USULLARINI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 826-830.
11. Isaqov, X., Mamatqulova, S., & Obidova, B. (2022). CHEMICAL COMPOSITION AND MEDICINAL

PERTIES IN THE PAPAYA (CARICA PAPAYA L.) PLANT. Science and Innovation, 1(8), 867-872.

12. Isaqov, X., Mamatqulova, S., & Obidova, B. (2022). MACRO AND MICROELEMENT COMPOSITION AND MEDICINAL PROPERTIES IN THE GUAVA (PSIDIUM GUAJAVA L.) PLANT. Science and Innovation, 1(8), 873-877.

13. Абдусаматовна, М. С. (2022). BRASSICA RAPA L. ОИЛАСИГА МАНСУБ ТУРП ИЛДИЗМЕВАСИНИНГ ТАРКИБИДАГИ ОРГАНИК МОДДАЛАР ТАВСИФИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 321-324.

14. Abdusamatovna, M. S., & Maqsudovna, X. S. (2022). SHOLG'OM O'SIMLIGI TARKIBIDAGI MODDALARNI KIMYOVLY TARKIBINI TAHLIL QILISH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 310-314.

15. Xayotillo, I., & Abdusamatovna, M. S. (2022). ANJIR DARAXTINING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 141-143.

16. Isaqov, X., Mamatqulova, S., & Obidova, B. (2022). ГУАВА (PSIDIUM GUAJAVA L.) O'SIMLIGINING MAKRO VA MIKROELEMENT TARKIBI HAMDA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI. Science and innovation, 1(D8), 873-877.

## ELEMENTS OF BIOMECHANICS OF THE GYMNAST'S MUSCULOSKELETAL SYSTEM

Khamraeva Zuhra Bahadirovna

*Lecturer of the Department of "Physical Culture and Sports Activities" of the Tashkent Financial Institute. Email: hamraevazuhro4@gmail.com*

**Annotaion:** *Centrifugal overloads during supporting rotations experienced by the gymnast's body can be very significant and, in combination with the radial effect of gravity, can exceed the force of gravity several times during fast movements.*

**Key words:** *gymnast's body, hands, elbows, hips, kneecaps, inertia*

The biokinematic chain (BKC) usually refers to human limbs. However, the gymnast's body, taken as a whole, also represents a BKC, the links of which are all movably articulated body segments. Each pair of adjacent links of the BKC thus constitutes a biokinematic pair.

Depending on the nature of the working position, the gymnast's body can be an open, closed or free BKC. Open BKC is the most typical. It occurs in all cases when the gymnast is in hanging positions, handstands and footstands. The high mobility of the legs, combined with their energy potential, once again emphasizes their role as the main working link of the BKC. The gymnast's body rarely finds itself in the position of a closed ball joint, since the mobility of the links in these cases is sharply reduced and the possibilities of supplying them with energy, as well as controlling movement, are minimal.

Finally, cases where the gymnast's body is a free BKC are very typical. These are unsupported positions in which the end links of the gymnast's body have the greatest mobility. The gymnast's supporting apparatus is specific. The support functions of a gymnast can be performed by almost all parts of the gymnast. In hangs, support is used with the hands, elbows, hips, kneecaps, and feet. In the supports and seat - forearms, shoulders and entire arm, head and neck, hips, pelvis. In stands - with legs and one leg "half toes", hands, one hand, fingers, forearms, shovels, head, etc. However, the most typical for gymnastics are working positions with support from the arms (hands), which most clearly emphasizes the specifics of gymnastics as a sport. The ability to use hand support is closely related to the morphology of the upper limbs. The conditions for supporting the hands are very diverse in different working positions and accordingly change when moving from one

work

ing position to another. Analyzing the diagram, you can, for example, see that from a hang (stand) with an underhand grip around the supporting hand, only rotation with pronation of the hand is possible. In this case, a turn of 180° brings the gymnast into an overhand grip, a turn of 360° into a reverse grip, and a turn of 540° into a hanging from behind with an overhand grip. This is the maximum rotation possible around one arm while maintaining the overall grip and working position. Turns with supination of the hand follow the same laws. The same happens when working positions change in hanging (stands) from behind and other working positions. Transitions from one working position to another, made without releasing the hands or turning, also follow certain regularities. They require actions such as flexion (extension) and twisting of the shoulder joints. All changes in working positions on other apparatus: uneven bars, pommel horse, are subject to similar completely unambiguous laws. Knowledge of these patterns helps to solve a number of practically important issues of movement technique, their modeling, targeted development of mobility in joints, as well as issues of terminology and judging in gymnastics.

The main questions of the geometry of a gymnast's body masses are questions about the localization of the gymnast and body inertia during rotational movements.

The center of gravity of the gymnast's body characterizes the distribution of masses in the latter. The constitutional features of body distribution in gymnasts and female gymnasts, associated, in particular, with the brachymorphic type of body structure, do not have a significant impact on the technique of exercises and the process of their development. The only exceptions are such types of exercises as leg swings on a horse, where the mass-geometric features of the body structure (especially the legs) can significantly influence the success of the task. It is also known that turns around the longitudinal axis are more successfully mastered by students who, other things being equal, have relatively higher height (S. D. Ustinov).

The most typical question is about the distribution of a gymnast's body mass when changing the working posture of the body. You can see that depending on the nature of the exercise and the working posture, the position of the c changes significantly. t. t - both in relation to the gymnast's body itself and in relation to the support. In equilibrium positions c. t. t is placed above the support. When swinging, it moves freely. It is also characteristic that the c.t.t., as an imaginary point of application of the resultant of all external forces, can be located outside the gymnast's body.

The moment of inertia of a gymnast's body is one of its most important mass geometric characteristics. As you know, in gymnastics rotation around the frontal axis

of the body predominates. The pose gradually changes from a position with a longitudinal bending of the body to a straight position and then to a position of extreme grouping. It can be seen that both values, given the moment of inertia relative to the possible grip axis, change in the same way: the moments of inertia reach their maximum values in a straight position of the body, and their minimum values when grouping. Of greatest practical interest are the values of the moment of inertia relative to the central.

**REFERENCES:**

1. Alisherovich, Tashpulatov Farkhad. "THE ROLE OF SPORTS IN THE DEVELOPMENT OF PERSONALITY OF YOUNG ATHLETES."
2. Carmen Pârvu , Bogdan Constantin Ungurean , Cristina Gabriela Zamfir , Zukhro Bahadirovna Khamraeva , Daniel Gabriel Alistar The Impact of Technology on Improving the Learning Process in Physical Education Lessons for Medically-Exempt Pupils. <http://bioclima.ro/Journal.htm>
3. Алишерович Т.Ф. Работоспособность и утомляемость в процессе обучения //Журнал Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 247-251.
4. Хамраева З. ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И ПРАКТИЧЕСКИЙ РОСТ ПРОГНОЗНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ В ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ И СПОРТЕ //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 88-93.
5. Khamraeva Zukhro Bahadirovna. THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN A HEALTHY LIFESTYLE. Ethiopian international of multidisciplinary research. -2023//Volume: 10, Issue 10// p. 164-167
6. Khamraeva Zukhro Bahadirovna. The Role of Women in the Development of Physical Education in the New Uzbekistan. Journal of Ethics and Diversity in International Communication// | www.openaccessjournals.eu | Volume: 3 Issue: 4//p.31-35
7. Xamraeva Zuxro Baxodir qizi. Regulation of Educational Activities in the Field of Physical Education and Sports. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED SCIENCES//<https://cajotas.centralasianstudies.org/>. P.28-36
8. Khamraeva Zukhro Bahadirovna. PEDAGOGICAL CATEGORIES OF PHYSICAL EXERCISES IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES TAUGHT IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume03Issue04-13/> p.71-75

## QO'QON XONLIGI TARIXIDA XUDOYORXONNING O'RNI VA AHAMIYATI

Axmedova Munojatxon Jo'rayevna

**Annotatsiya:** *Qo'qon xoni Xudoyorxonning mamlakat taxtiga kelishi, o'sha paytdagi siyosiy vaziyat, shuningdek XIX asr o'rtalari va ikkinchi yarmidagi qo'shni davlatlarning Qo'qon xonligi bilan aloqalarida Xudoyorxonning qo'llagan diplomatik yo'llari haqida muhokama qiladi. Bu fan tashqari Xudoyorxon shaxsiga qarash, uning davrida davlatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy holati va Chor Rossiyasining bosqini va Xudoyorxonning keyingi taqdiri haqida ham ma'lumot beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Xo'jand, zambarak, Koson, qo'zg'olon, Chor Rossiysi, Qo'qon, qipchoq, mingboshi, Turkiston general-gubernatorligi.*

Vatanimiz tarixida juda ko'p qizg'in davrlar va voqealar bo'lgan. Shuningdek, bir-biridan ajratib turuvchi hukmdorlar bo'lgan. Shunisi achinarlik, ko'plab tariximiz voqealarini tarixnavislar tomonidan yaxshi yoritilmagan. Bunga sabab sifatida mutaxasislar Sobiq Sovet tuzumi haqiqiy tariximizni namoyish qilishga imkon bermadi, qayerda milliy g'urur haqida gap ketsa, o'sha yer shovinistik hukumat vakillari tomonidan yo'q qilinardi. Turkiston o'lkasining "Xonliklar davri" Mustaqilligimiz e'lon qilinganidan keyin asta-sekin yosh olimlar tomonidan yoritila boshlandi. Bu davr haqida manbalar ko'p emas, lekin shunisi muhimki, yurtimizning tarixnavisligini dunyo hamjamiyatiga olib chiqish payti keldi. Shunday davrlardan biri, Rossiya imperiyasi tomonidan Qo'qon xonligining bosib olinishi va hukmdor Xudoyorxon davridir. Ba'zi tarixchilar Xudoyorxonni mamlakatni yaxshi boshqarolmagan, mamlakatni yetarlicha mudofaa qila olmagan desa, boshqa bir guruh olimlar bu masalada boshqacha fikr bildiradilar. Har qanday holatda ham bu masalani holis baholash kerak.

Xudoyorxonning Qo'qon xonligi taxtiga chiqishi Muhammad Alixon(1822-1841) hukmronligining oxiridagi voqealar bilan bog'lanadi. Muhammad Alixon Sharqiy Turkistondagi zafarli yurishlari va boshqa siyosiy yutuqlari tufayli XIX asr 30-yillari oxirida aysh-ishrat va maishatga beriladi. Undan norozi bo'lgan ulamolar va boshqa siyosiy arboblar Buxoro amiri Nasrulloxon dan yordam so'raydilar. Bu paytda Buxoro amirligi Qo'qon xonligi bilan Xo'jand, Jizzax va O'ratega uchun jang qilayotgan edilar. Buxoro amiri Nasrullo xon uchun Qo'qon ulamolarining Muhammad Alixon o'z "o'gay onasi"ga uylangan degan gaplari bahona bo'ladi. Bundan tashqari, xon Haqqul mingboshi va boshqa nufuzli shaxslarni qatl ettiradi

.Bu

esa yonib turgan olovga moy sochishdek gap edi. Nasrulloxon Xo‘jand , O‘ratepa, Jizzaxni qo‘lga kiritib, Qo‘qon sari otlanadi. Bu paytda Qo‘qonda xonga qarshi isyon boshlanib , Muhammad Alixon o‘rdadan qochadi. Bir necha kishilar qatl etiladi. Nasrulloxonning Qo‘qonga hujum qilish uchun kelayotganini eshitgan xalq qo‘zg‘oltonni to‘xtatadi. Nasrulloxon Beshariqqa kelganda , xon unga qimmatbaho sovg‘alar yuborib, o‘zini Buxoro amirligining noibi deb e’lon qiladi . Shuning barobarida , Buxoroga Xo‘jand ini topshiradi. Muhammad Alixon yana taxtga qaytib , o‘z zulmini davom ettiradi. Shundan so‘ng , xalq yana qo‘zg‘olon ko‘taradi. Bu safar Muhammad Alixon ukasi Sulton Mahmudxon foydasiga taxtdan voz kechadi. 1842-yil Nasrulloxon yana Qo‘qonga hujum qiladi. Namanganga qochib ketgan Muhammad Alixon, uning ukasi Sulton Mahmudxonni qatl ettiradi. Hattoki , xonning onasi va shoira Nodirabegim , yaqinlari Xushxolbibi, Norbibilan qatl etiladi. Nasrulloxon Qo‘qonni Buxoro amirligiga qo‘shib olinganligini e’lon qiladi va Ibrohim dodxoh Mang‘itni o‘z noibi deb e’lon qiladi. Ibrohim dodxon Qo‘qondagi mavjud soliqlar bilan birgalikda Buxoro amirligidagi soliqlarni joriy etgani uchun 3 oydan so‘ng xalq qo‘zg‘olon ko‘taradi. Xalq qo‘zg‘olon ko‘tarib , Norbo‘tabiyning ukasi Sheralixon (Xudoyorxonning otasi) xon etib saylanadi. Nasrulloxon Qo‘qonda o‘z mavqeini tiklash uchun qo‘shin tortib keladi va shaharni 40 kun qamal qiladi . Xiva xoni Olloqulixon Chorjo‘yga hujum qilganini eshitgandan so‘ng , orqaga qaytishga va Buxoroda vaziyatni o‘nglashga kirishadi. Shu paytdan boshlab , xonlikda qipchoq qabilalarini mavqeyi kuchaya boshlaydi. Oldingi xon davrida yuzboshi bo‘lgan qipchoqlardan Musulmonqul mingboshi -qo‘shin boshlig‘i , bosh vazir va bosh maslahatchi bo‘lib oladi. Shu davrda qipchoqlarga nisbatan noroziliklar paydo bo‘la boshlaydi. Ko‘chmanchi qipchoqlar aholini uylarini va mol-mulkini tortib ola boshlaydilar. Sheralixon Musulmonqulni payiga tushadi . Bundan xabar topgan Musulmonqul Sheralixonga nisbatan fitna tayyorlaydi. Unga ko‘ra , O‘shda aholi soliqlar tufayli qo‘zg‘olon ko‘taradi, mingboshi Musulmonqul qo‘zg‘oltonni bostirishga ketadi. Bu paytda , vafot etgan Olimxonning o‘g‘li Murodxonni xon qilib ko‘taradilar , Musulmonqul esa bir o‘q orqali ikki quyonni urmoqchi bo‘ladi. Rejaga ko‘ra , Isfara hokimi Sotiboldibiy Samarqandga borib , Olimxonning o‘g‘li Murodxonni taxtga o‘tirishga da‘vat qiladi. Murodxon bu taklifni qabul qiladi. Soliqlarni oshganligidan norozi bo‘lgan O‘sh aholisi 1845-yil qo‘zg‘olon ko‘taradi. Mingboshi Musulmonqul isyonni bostirgani yo‘lga chiqadi. Musulmonquldan bexabar Shahrixon hokimi O‘shdag‘i qo‘zg‘oltonni bostiradi. Lekin Musulmonqul orqaga qaytmaydi va O‘shda ko‘plab aholini qirg‘in qiladi. Musulmonqulning fitnasini sezgan Sheralixon Murodxonga taxtni bo‘shatib beradi. Murodxon esa kechasi Sheralixonni

rtiradi. Murodxon esa 11 kun taxtda o‘tira oladi xolos. Musulmonqulga u o‘z lavozimida qolgani haqida yorliq yuboriladi. Fitnaga ko‘ra , Musulmonqul "isyonchilar"ni jazolash maqsadida yo‘lga chiqadi. Avvalo , ishni o‘sha paytda Namangan hokimi bo‘lgan Sheralixonning besh o‘g‘lidan biri 13yoshli Xudoyorxonga o‘zining 12 yoshli qizini nikohlab beradi. Qo‘qonga qaytgan Musulmonqul Murodjon va unga qo‘l bergenlarni fitnachilar sifatida qatl ettiradi , yosh Xudoyorxonni xon deb e’lon qiladi. Shunday qilib , Musulmonqul hokimiyatni qo‘g‘irchoq Xudoyorxon orqali boshqara boshlaydi.

Dastlab o‘z hukmronligini qaynotasi yordamida boshqargan Xudoyorxon o‘z hukmronligi davrida juda ko‘p fitnalarga duch keladi, bir necha marta taxtdan tushiriladi .Xudoyorxon 1845-1858-yillar, 1863-yil va 1865-1875/1876-yillarda Qo‘qon xonligini boshqaradi . Yosh bo‘lganligi tufayli Xudoyorxon davlat bshqarish tizimini mingboshi Musulmonqul o‘z qo‘liga olgan , va ahgolining turli qatlamlarini o‘ziga qarshi qilib qo‘ygan edi. Bundan tashqari bir necha omillar qipehoqlarni hokimiyatini tugatishni talab qilayotgan edi : birinchidan Musulmonqul boshliq qipchoq qabilalari davlatning yuqori lavozimlarini egallab olib , mamlakatni o‘z bilganlaricha boshqarishda davom eta‘yotgandilar, qipchoq qabilalari mahalliy aholining uy-joylari, molk-mulklarini tortib olishardi va sug‘orish inshoatlariga egalik qilib , aholidan suv uchun soliq olardilar. Shunday qilib, butun boshli davlatning barcha tabaqalari qipchoqlarga qarshi bo‘lib qoladilar. Musulmonqul esa o‘z mavqeyini saqlab qolish maqsadida rus qo‘mondonligining rasmiy vakili V.V.Velyaminov-Zernov bilan maxfiy ravishda maxfiy tarzda uchrashishi vaziyatni murakkablashtirib yuboradi.

1852-yil 9-oktabrda Toshkentdan chaqirilgan qo‘shin bilan Qo‘qonda qipchoqlar qirg‘ini uyushtiriladi va 20000 qipchoq qirib yuboriladi. Musulmonqul qatl etiladi va qipchoqlarning mol-mulki tortib olinadi. Lekin Xudoyorxonning ba‘zi siyosiy tadbirlari va farmonlari tufayli hukmronligi uzoqqa bormadi. Soliqlarning oshirilishi aholini noroziligiga sabab bo‘ladi. 1854-yil Andijon va Marg‘ilonda , 1855-yil Toshkent , Turkiston va Chimkentda qo‘zg‘olon ko‘tariladi. Buxoro amiri Muzaffarxon qo‘zg‘olonga amaliy jihatdan yordam beradi.1858 -yil ukasi Mallaxon qo‘shin to‘playdi va Xudoyorxon dan taxtni tortib oladi.Xudoyorxon Buxoroga ochadi. Bu paytda Rossiya imperiyasi Pishpak, To‘qmoq, Ashtakni egallaydi. 1862-yil Mallaxonning o‘zi saroy to‘ntarishi oqibatida taxtdan tushiriladi va qatl etiladi. Bu ishlarning orqasida dastlab Mallaxonga yordam bergan Alimqul(Aliquli) turar edi.Xonlik taxtiga Sheralixonning nabirasi, Sarimsoqbekning o‘g‘li Shohmurod o‘tiradi. Mallaxon davrida ruslarga qarshi kurashgan Toshkent hokimi Qanoatshoh Mallaxon o‘limida Shohmurodni ayblab,

oyorxonni taxtga taklif qiladi. Dastlab O‘ratepa hokimi bo‘lgan, Sangzor qal’asini egallab olgan Abulg‘afforning Yom, Zomin va O‘ratepani egallab olishi tufayli Xudoyorxon Qo‘qon va Xo‘jandni jangsiz egallaydi. 1863-yil 5-mayda Qo‘qon egallangach, Shohmurod Marg‘ilonga qochadi. Ammo Farg‘ona vodiysining sharqiy hududlarida nazorat o‘rnata olmaydi. 1862-1863-yillarda Xudoyorxon Qo‘qonni boshqaradi. Ammo qirg‘iz-qipchoqlar Koson va Chust atroflarida qo‘zg‘olon ko‘taradilar va biroz vaqtidan so‘ng, tezlik bilan To‘raqo‘rg‘onga hujum qiladilar. Ular qo‘zg‘oloni ommaviylashtirish maqsadida Toshkent atroflariga noma yuborib, qabila boshliqlaridan madad so‘raydilar. Bunga javoban qozoq qabilalari Toshkentni qamal qiladilar. Xudoyorxon yuborgan qo‘shin bilan isyon bostiriladi ammo mahalliy qabila boshliqlari kurashni davom ettiradilar. Xususan, Shodmonxo‘ja, Said Mahmudxonto‘ra, Alimquli va Sulton Saidxonlar birlashib, Marg‘ilondan o‘tib Andijonni bosib oladilar va uning atroflaridagi Baliqchi, Asaka, Shahrixon, O‘sh, Poytug‘, Quva atroflarini talon-taroj qiladilar. 1863-yil 26-aprelda Sulton Saidxon qo‘shini Mingtut mavzesiga kelib, Qo‘qonni qamal qiladi. Amir Muzaffar jo‘natgan qo‘shin tufayli qo‘zg‘olonchilar Asakagacha quvib boriladi. Ular Qoralulcha darasida himoyaga o‘tadilar. Uzoq kurashlardan so‘ng qipchoq va qirg‘iz qabilalarining yordamida 1863-yil 24-iyulda Sulton Saidxon Qo‘qon taxtiga o‘tiradi. Xudoyorxon yana Buxoroga qochadi. 1863-yil iyuldan 1865-yil iyulgacha Qo‘qonni Mallaxonni o‘g‘li Sulton Saidxon boshqaradi. Amalda esa butun hokimiyat Alimqul qo‘lida edi. Bu davr ichida Chor hukumati Qo‘qon xonligiga hujum qilib, sharq tomondan Chernyaev, g‘arb tomondan Verovkin hujum boshlaydilar. Shu orada Avliyota, Suzoq, Turkiston shaharlari ruslar tomonidan bosib olinadi. 1864-yil 22-sentabrda Chimkent ruslar qo‘liga o‘tadi. 1864-yil 2-oktabrda Toshkentga hujum boshlanadi. Ruslar Toshkentning darvozasi - Niyozbek qal’asini ham bosib oladilar. Bosh qo‘mondon Alimqulining 9-may kuni Salar arig‘i bo‘yida og‘ir yaralanib vafot etishi himoyachilarni ruhiyatini tushirib yuboradi. 1865-yil 17-iyunda Toshkent ham Chor hukumati tarkibida kiritiladi va bosib olingan Toshkent vohasi va Janubiy Qozog‘iston hududlarini o‘z ichiga oluvchi Turkiston viloyati tuziladi. Amir Muzaffar yordami bilan Xudoyorxon Qo‘qonni yana egallaydi. 1867-yildan so‘ng Xudoyorxon Amir Muzaffarga bo‘ysunmay qo‘yadi. Xudoyorxon ruslar bilan aloqani yaxshilash maqsadida har yili Toshkentga sovg‘a-salomlar yuborib turadi. 1867-yanvar Rossiya bilan savdo bitimi, 1868-yil 13-fevralda savdo shartnomasi tuziladi va deyarli Qo‘qon xonligi Rossiyaning vassaliga aylanib qoladi. Rossiya imperiyasi bu xizmati uchun Xudoyorxonga orden va "Aslzoda" unvoni beriladi. Rus hukumati endi Qo‘qon xonligini butunlay qo‘shib olish uchun vaziyat poylardi. Ruslardan polkovnik Shaufus josuslar orqali Qo‘qonning zaif

onlarini qidirar edi. Va nihoyat , bu bahona tug‘ildi. Xudoyorxonning o‘ylamay chiqargan farmonlari oqibatida xalq turmush tarzi yomonlashadi, soliqlar esa bu vaziyatni yanada chigallashtirardi. O‘sh viloyati aholisidan 1873-yil bahor oyida zakot uchun bitta qo‘y o‘rniga uchta qo‘y talab qilinishi yangi bir qo‘zg‘olon boshlanishiga sabab bo‘ladi. Bu qo‘zg‘olon tarixga "Po‘latxon" qo‘zg‘oloni nomi bilan kiradi. 1873-yil bahor oyida qirg‘izlar bu soliqqa nisbatan soliq yig‘uvchilarni qo‘lidan soliqlarni olib qo‘yish bilan javob berdilar. Soliqlar o‘z egalariga qaytariladi. Qirg‘izlar orasidan Ma'mur, Musulmonqul kabi kishilar edi. Qo‘zg‘olanni bostirishga xonning ukasi Sulton Murodbek jalg qilinadi, ammo u amalga chora qo‘llay olmaydi. Keyin esa Abdurahmon Oftobachi jalg qilinadi. Qo‘zg‘olonchilar bo‘ysunmay, 20000 qirg‘iz toqqa chiqib ketadilar. Shu tariqa qo‘zg‘olon boshlanib ketadi. Qo‘zg‘olonga g‘oyaviy rahbar sifatida Musulmonqul( qipchoqlardan chiqqan Musulmonqul mingboshiga aloqasi yo‘q) tomonidan soxta Po‘latxon ismi ostida Mulla Is‘hoq Mulla Xasan o‘g‘li taklif etiladi. U Tunqator madrasasida o‘qigan , taqdir taqazosi tufayli bu paytda nosfurushlik qilar edi.Aslida esa Olimxonning nabirasi Otaliqxonning o‘g‘li Po‘latxon Samarqandda yashar edi . Unga bu taklif berilganda, otasining o‘limi va boshqa sabablarni aytib, rozi bo‘lmagan edi. Buni rus sarkardasi Abramov Xudoyorxonning jiyani Nosirxon yordamida 1876-yil bilib qoladi , lekin Rossiya hukumati buni oshkor qilmaydi. 1874-1875-yillar davomida Koson , Andijon, Marg‘ilon va boshqa hududlarda u yoki bu tomonning ustunligi bilan juda ko‘p janglar bo‘lib o‘tadi. Qo‘zg‘olonchilarga dastlab 3000 sarboz , Abdurahmon Oftobachi Mulla Iso Avliyolar boshchiligidagi 4000 sarboz 1875-yil 17-iyulda , 19-20-avgust kunlari valiahd Nasriddinbek va Sulton Murodbekning qo‘shilishi tufayli xonning Kaufmandan yordam so‘rashdan boshqa iloji qolmaydi. Xudoyorxon 20-iyunda Kaufmandan hokimiyatini qaytarib olib berishini so‘raydi. Toshkentdagi general-gubernatorlik bunga va'da beradilar. 22-iyul kuni Xudoyorxon ahli oilasi bilan jami 643 kishi Qo‘qonni tark etadi. Ularning 70 nafari xonning ahli ayollari, Xudoyorxonning kenja o‘g‘li O‘rmonbek , Mahramning sobiq begi Otabek noib , jiyani Mulla Ma'ruf , Mirza Hakim parvonachi bor edi. Shu bilan birga 150 ta zambarak , 22 yoki 40 ta arava oltin ham borligi aytildi. Xonning qarindoshi Mahmudxonto‘ra 3 ta zambarak va 2 arava oltinni Qo‘qonga qaytaradi. Xudoyorxon 24-iyul kuni Xo‘jandga keladi, 10 kun istiqomat qilgach , Toshkentga yuboriladi. Xon Toshkentda va ruslar orasida katta obro‘ga ega Saidazimboydan iltimos qildirib , K.P. Kaufman bilan uchrashmoqchilagini aytadi. Saidazimboy aslida ruslarga sotqin bo‘ladi. Saidazimboy xonga Orenburgga borib , imperator bilan uchrashish haqida maslahat beradi. Bu esa ruslar bilan kelishilgan , xonni aldab ,

burgga yuborish to‘g‘risida xiyla edi. Chunki, Xudoyorxonning Toshkentda qolishi Turkiston general-gubernatorligi uchun ham xavf tug‘dirar edi. Qo‘zg‘olonchilarning bu yerda ko‘plab qarindosh va yaqinlari yashar , bu esa Toshkentni ham qo‘zg‘olon markazlaridan biriga aylanib qolishi muammosini keltirib chiqarishi mumkin edi. Kaufman tilmoch bilan kirganda , tilmoch Xudoyorxonning "gosudar imperatorni ko‘rmoqchiligin" aytadi . Xudoyorxon betakalluf xo‘p deydi. Xudoyorxonning o‘tgan ishlardan toliqqan , nima deyishni bilmas , bo‘lib o‘tgan ishlar uni ancha dovdiratib qo‘ygan edi. Shunday qilib , Xudoyorxon rejalashtirgan so‘zlarini aytolmaydi va u Orenburgga jo‘natiladi . Chimkentda Otabek noib 150 sarbozi bilan qaytarib yuboriladi.

Qo‘qondagi voqealar esa o‘zgarib ketadi . 1875-yil 25-iyul kuni Nasriddinbek Abdurahmon Oftobachiga 50000 tillo pul va' da qilib xonlik taxtiga o‘tiradi. Bunga Po‘latxon tarafdarlari norozi edi. 1873-yil qo‘zg‘olonchilar tomonidan Po‘latxon xon deb e‘lon qilingani ikki hokimiyatchilikni vujudga keltiradi. 1875-yil Nasriddinbekning Kaufmanga xat yo‘llashi va boshqa sabablar yana qo‘zg‘olon boshlanishiga sabab bo‘ladi. Qo‘zg‘olonchilarning islom kuchiga va odam soniga ishonib, Qo‘qon xonligini oldingi hududlarini tiklash maqsadida Toshkentning Qurama uyezdiga, Abliqqa, To‘ytepaga , Parkentga hujum qilishi Rossiya imperiyasi uchun yangi hujum boshlash haqida qaror qabul qilishga turtki bo‘ladi. M.D.Skobelov 18 rota piyoda askar , 1 ta sapyor rotasi , 900 kazak otlisi , 20 ta to‘p bilan hujum boshlaydi. Dastlab 1875-yil avgustda Mahram qal‘asi , 29-avgustda Qo‘qon jangsiz egallanadi. 1875-yil 22-sentabrda Marg‘ilonda Qo‘qon xonligi bilan vassalik to‘g‘risida sulh tuziladi. Shundan keyin butun xonlik hududini egallahsga qaror qilinadi. 9-oktabrda O‘rdada qolib bo‘lgani tufayli Nasriddinbek ochib ketadi. 23-oktabrda To‘raqo‘rg‘on va Baliqchi, 27-iyulda Namangan egallanadi. Andijonda deyarli atrofdagi barcha kuchli to‘plangan edi.Oktabr oyida 1400kishilik qo‘shin, 8 ta zambarak , 4 ta raketa otish qurilmasi orqali Andijonga hujum boshlanadi. Bir necha oylik kurashlardan so‘ng, 19-yanvarda Andijon qayta taslim etiladi. 8-fevral kuni M.D.Skobelov 400 kazak , 4ta piyoda rota, bir rota otliq o‘qchi, bitta raketani batareya, 4 ta zambarak bilan Qo‘qonga kirib boradi va O‘rdani egallaydi. Abdurahmon Oftobachi esa 1876-yil 20-yanvarda 426 odami bilan taslim bo‘ladi va uni Yekaterinoslav guberniyasiga surgun qilish terisida farmon qabul qilinadi. Botir To‘ra va Abdulmo‘min 9- fevralda asir olinadi.18-fevraldan 19-fevralga o‘tar kechasi Oloy tog‘larida Skobelov tomonidan yuborilgan otryad tomonidan qo‘lga olinadi. Po‘latxonning ushlanishiga sabab, 30 ta qirg‘iz yigit, Marg‘ilon va O‘sh atrofidan to‘plangan odamlarni dushmanligini kech sezgan edi. Buni ustiga uning odamlari oz va bir necha kun avval oyog‘i singan edi.U

-yil 1-martda Marg'ilon shahrida dorga osiladi. Nasriddinbek esa Vladimir guberniyasiga surgun qilinadi. Shunday qilib, 150 yildan ko'p hukmronlik surgan Qo'qon xonligi 1876-yil 19-fevralda tugatiladi va Farg'ona viloyati tuziladi.

O'z davlatidan quvilgan Xudoyorxonning endi Orenburgga borishdan boshqa chorasi qolmaydi. Chunki u endi Kaufman yordamidan hali ham umid qilar, uchinchi marta yana taxtga o'tirishga hali ham ishonar edi. 1875-yil 12-avgustda Xudoyorxon 50 ta yaqin kishisi bilan Orenburgga surgunga jo'naydi. U bilan kenja o'g'li O'rmonbek, uning tog'asi Eson Ali, sobiq So'x begi Mulla Ma'ruf va bir necha yaqin kishilari bor edilar. Xudoyorxon o'ziga bir kun asqotishini bilan holda, Rossiya Davlat Bankining Toshkent bo'limida 140 ming so'm Qo'qon tangasini qoldiradi. Davlat amaldorlariga o'zida oltin yo'qligini aytadi. Agar aytса, uning oltinlari tortib olinishi mumkin edi. Xudoyorxon Orenburgga kelib, Vodyanoy va Atamansk ko'chalari kesishgan joyda bitta yogoch uy sotib oladi. "Turkistanskie Vedemosti" gazetasida Xudoyorxon haqida ma'sum va g'amgin holda ko'p vaqt eshik oldida o'tirishini aytishgan. Rossiya hukumati uning avval Qo'qonda hukmdor bo'lganini hisobga olib, Xudoyorxonga 1875-yil 21-noyabr kuni Sankt-Peterburg va Turkiston o'lkasidan tashqari Rossiyaning hamma shaharlarda yashashga ruxsat etiladi. Xudoyorxon Orenburgdagi Rus hukumatiga Makkaga ziyyaratga bormoqchilagini, undan keyin esa Peterburda uy sotib olib, yashamoqchi ekanligini aytadi. Lekin imperator Aleksandr II unga ruxsat bermaydi. Bunga esa, endi sobiq xon bilan imperator bilan uchrashishi uchun hech qanday sabab yo'q edi. 1875-yil 12-noyabr tunida Xudoyorxon Orenburgdan kutilmaganda g'oyib bo'ladi. Bundan xabar topgan Orenburg general-gubernatori Krijanovskiy Ural va To'rg'ay viloyatlari harbiy gubernatorlariga uning qochishi haqida xabar beradi. Keyinchalik Turkiston general-gubernatori Buxoro amiri Muzaffarga ham maktub yo'llaydi. Mantiqan "qochoq" sifatida Xudoyorxon Buxoro yerlariga qochishi yoki Farg'ona viloyatiga qaytib yana taxtga qaytish maqsadida isyon ko'tarishi mumkin. Bu esa Rossiyaning O'rta Osiyoda olib borayotgan siyosatiga fojiali muammo tug'dirishi mumkin edi. Xudoyorxon o'zi bilan qarindoshlari Sultonxon va Nurmuhammadni olib ketadi. Rus hukumati uning qochishida Orenburgda uy savdosi bilan shug'ullanuvchi Bigjon Jongildin va chekli urug'iga mansub Azbergan Munaytpasov yordamida qochishga uringani haqida surishtiruv ishlari olib boradi. Ularning nomida juda ko'plab hujjalarda uchratish mumkin. Xudoyorxon haqida Rossiya hukumati yo'lda Xudoyorxonga duch kelgan, unga hamroh bo'lgan qozoq O'tuja Janov tufayli ma'lumot oladi. O'tuja Janov Xudoyorxonni Buxoro tomonga ketayotganini, egnida tulki terisidan tikilgan mo'ynali chopon, qozoqlar kiyadigan qulqochin va qo'lida miltiq borligini aytadi. Xudoyorxonning

ngi taqdiri haqida xabarlar uzilib qoladi. Sobiq Qo‘qon xoni haqida keyingi xabarlar Rossiya hukumati uchun maxfiy josus bo‘lib ishlagan, Umidov nomi bilan mashhur Mirza Hakim parvonachiga 1880yil sentabrda kelgan maktub orqali ma‘lum bo‘ladi. Xudoyorxon Qobulga o‘tib , undan Makka va Bag‘dodga boradi, bir qo‘qonlik savdogar taklifiga binoan Hindistonning Bombey shahriga boradi. Keyinchalik mablag‘ini tugatgandan so‘ng yana Rossiya hukumatidan yordam kutadi. Xudoyorxonning bunday qilishiga sabab Rossiya va Angliya O‘rta Osiyo masalasida bir to‘xtamga kelib, kelishishgan edi. Endi esa Angliya uchun Xudoyorxonning hech qanday foydasi yo‘q edi. 1881-yil Orenburg general-gubernatori Krijanovskiy nomiga Konstantinopoldan xat keladi. Bu konvertga Xudoyorxonning rasmiy iltimos onasi, va oila a’zolari uchun 5 ta maktub ham bor edi. Shuningdek Xudoyorxonning shaxsiy muhri ham bosilgan edi. Maktubda Xudoyorxon Orenburgda uni o‘ldirish haqida gumonlar paydo bo‘lganini, birgina yo‘l Makkada ketmoqlik ma‘qul yo‘lligini, Bombeyga esa xonning qo‘lida jiddiy jarohat paydo bo‘lgani, Makkada esa yaxshi duxtirlar bo‘lmay , Bombeyda tibbiyot kuchli rivojlangani sababli davolanish maqsadida borganligini aytadi. Ushbu xatida yana o‘g‘li Nasriddinbekni ko‘rmoqchilagini va bu xatni Abdurahim o‘g‘li Og‘a Abdulazizdan berib yuborilganligini aytib o‘tadi. Rossiya hukumati uchun ham haliyam Xudoyorxon ahamiyatl shaxs bo‘lib , uni chet davlatlarda yurishi ortiqcha tashvish bo‘lar edi. Bundan tashqari , xonning jiyani Abdulkarimbek hamon ozodlikda yurar , u yana Qo‘qon xonligini tiklamoqchiligi haqida uzuq-yuluq faollar bor edi. Shuning uchun 1881-yil 1-mart kuni Rossiya tashqi ishlar vazirligidan Kaufmanga Xudoyorxonqa qaytib kelishga ruxsat berilishi va unga yaxshi munosabatda bo‘lish haqida telegramma keladi. 1883-yil Turkiston o‘lkasida sobiq Qo‘qon xoni o‘lganligi haqida mish-mishlar paydo bo‘ladi. 1888-yilda Xudoyorxonning Toshkentda yashovchi o‘g‘illari Muhammad Aminbek va Muhammad Umarbek otasining o‘limi haqida guvohnoma so‘rab , Turkiston general-governatorligiga murojaat qiladilar. Bu guvohnoma ular uchun otasining Orenburgda saqlanayotgan 32660 so‘m pulini olish uchun kerak edi. Bu masala yuzasidan Bosh shtab Osiyo Departamentida murojaat qiladi. O‘scha yil N.O.Rozenbaxga kelgan maktubda Xudoyorxonning Kobuldan Qandahorga kelayotganda 1882-yil yoz oylarida vafot etgani aytildi. Bu ma‘lumotni sobiq Qashqar hokimi Muhammad Yoqubbekning o‘g‘li Bek Qilibek yetkazgan va u Xudoyorxonning Afg‘onistonda dafn etgan kishilarni ko‘rgan. Turkiston general-governatorligi bunga qoniqmay, bu masalasida Xudoyorxon avlodlariga xonni dafn marosimida qatnashgan kishilardan aniq ma‘lunot berishlari so‘raydi. 1888-yil 13-iyulda Toshkent shahri boshlig‘i , general-governator nomiga kelgan raportda

ing o‘g‘illari Muhammad Aminbek va Muhammad Umarbekka otalarining o‘limi haqida andijonlik Mahmud Ali Bobojonov va Xivalik Turdiboy hoji O‘tmishevlar aytishgani bildirilgan. Ular Xudoyorxon bilan birga Makkadan Hirotga qaytib kelayotganlarida Xudoyorxon o‘pka kasaliga duchor bo‘ladi. Bir oy yotganidan so‘ng esa vafot etadi va Hirot yaqinidagi Koruh qishlog‘iga dafn etiladi. Uning yonidan topilgan 100 tilla pulni Hirot begi Qunduzxon tortib oladi. Shunga asoslanib , Xudoyorxonni 1882-yil 51 yoshida sarson-sargardonlikda vafot etgani haqida xulosa chiqaramiz.

Vatanimiz tarixida shunday ko‘p hukmronlar bo‘lganki, ularni har biriga izoh berishga qalam ojizlik qiladi. Turkiston o‘lkasi tarixi XIX asrda tubdan inqirozga yuz tutgan uchta xonlikning o‘zaro urushlari tufayli zavol bo‘ldi. Oxir oqibatda CHor Rossiyasi mustamlakasiga aylandi. Xudoyorxon esa davlatni yaxshi boshqarolmadni, mudofaa tadbirlarini ko‘rolmadni, Rossiya yaqinlashib kelayotganini bilsada, o‘z davlatidagi vaziyatni to‘g‘ri baholay olmaydi. Nima bo‘lsa ham , 1863-1865-yillarda Rossiya tomonidan Turkiston , Chimkent, Toshkent va boshqa yerlarni bosib olinishida va 1875-yil Qo‘qonni mudofaasidagi mag‘lubiyatda Xudoyorxonni ayplash mantiqan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki Xudoyorxon bu paytda Qo‘qon xoni bo‘lмаган. Xudoyorxon va boshqa hukmdorlarga baho berishda bir tomonlama yondashish xato hisoblanadi. Agar turli manbalarga va diplomatik yozishmalar va tayanib , xolis mulohaza ishlab chiqilsa, nisbatan tarix to‘g‘ri yaratilishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ayubovna, S. M. (2023). Physical Education And Sports Training Are An Integral Part Of A Healthy Lifestyle. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 338-343.
2. Ayubovna, S. M. (2023). SPORT, ESTETIKA VA ESTETIK TARBIYA. Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research, 1(3), 82-89.
3. Ayubovna, S. M. (2023). Psychological Research Of Coaching Activities In Sports. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 344-352.
4. Saidova, M., & Sayfiyev, H. (2023). CONTENT-IMPORTANCE AND PRINCIPLES OF PHYSICAL EDUCATION CLASSES. Modern Science and Research, 2(9), 192-199.
5. Сайфиев, X., & Saidova, M. (2023). БАДМИНТОНИСТЫ ФИЗИЧЕСКИЙ ПОДГОТОВКА И ЕМУ РАЗРАБОТКА МЕТОДЫ. Инновационные

едования в науке, 2(4), 45-54.

6. Sayfiyev, H. X. (2023). SPORT GIMNASTIKASINING PEDAGOGIK O 'LCHOV USULLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 307-315.

7. Ayubovna, S. M., & Xayrullayevich, S. H. (2023). YOSH BOLLALARDA SPORT SPORT GIMNASTIKASINING PEDAGOGIK O 'LCHOVLAR NAZARIYASI VA TASHKILIY-METODIK ASOSLARINI TADQIQ ETISHNING MAQSADI, VAZIFALARI. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 2(22), 108-118.

8. Xayrullayevich, S. H. (2023). Use of Acrobatic Exercises and Their Terms In The Process of Teaching Gymnastics. Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599), 1(9), 80-86.

9. Xayrulloevich, S. H. (2023). Sport gimnastika mashg'ulotlarida asosiy harakat qobiliyat (FMS), postural (muvozanat) nazorat va o'zini o'zi idrok etishga sport gimnastikasining ta'sir. Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research, 1(3), 74-81.

**9-SINF O'QUVCHILARINI INTERFAOL USULLAR ORQALI TEST  
JARAYONLARIGA TAYYORLASH**

**Asamiddinova Mahliyo Fazliddinovna**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada interfaol usullarning matematika darslarida qo'llanilishi – bu o'quvchilarining, ayniqsa, 9-sinf o'quvchilarining test jarayonlariga mustahkam tayyorgarliklarining omili sifatida hamda bu usullar orqali ularning bilim, ko'nikma va malakalarining rivojlanishi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** interfaol usullar, 9-sinf, o'qituvchi, o'quvchi, test jarayonlari, tayyorgarlik, bilim, ko'nikma va malaka.

Barchamizga ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida 4 ta chorak bo'lib, har bir fan o'qituvchisi har chorakda pedagogik yuklamasiga binoan o'quvchilardan nazorat ishi olishadi. Bu jarayonda o'qituvchilardan ba'zilari test sinovlarini olishsa, ba'zilari esa amaliy ishlarni o'quvchilarga bilimlarini sinagani berishadi. O'quvchilarni test jarayoniga tayyorlash uchun o'qituvchidan juda katta bilim va malaka talab qilinadi. Har bir pedagog darsni tashkillashda interfaol usullardan foydalanishi o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi va shu bilan birga o'quvchilarni testga tayyorgarliklarini oshiradi.

Aslini olib qaragnda, interfaol metod - ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarining bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sindf jamoasi bo'lib ishslash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Yangi pedagogik texnologiyaning afzalligi zamon sinovidan o'tib, interfaol darsning sifat va samaradorligi oshirishda muhim omil ekanligi o'z isbotini topmoqda.

Bu borada ancha-muncha tajriba to'plagan tadqiqotchilar pedagogik texnologiya darsining muvaffaqiyatlarini kafolotlavchi omil ekanligini ta'kidlab, pedagogik jarayonlarni ilmiy lohihalashtirish, uni amalga oshirish, loyihalashtirilgan ta'lim tarbiya jarayonini amaliyatga aniq va ketma-ket tatbiq qilish xususida o'z fikr-mulohazalarini ommaning diqqat-e'tiboriga havola etayotir.

Yangi pedagogik texnologiyadan kutilgan maqsad nima, uning afzaliklari, darsning samaradorligini oshirish tamoyillari nimadan iborat degan savolga misol tariqasida matematika fanidan 9-sinf o'quvchilarining testga tayyorgarliklarini quyidagicha javob berish mumkin:

1. Yangi pedagogik texnologiya eng qulay va sodda usul bilan berilgan matematik misol va masalalarini yechish;
2. Trigonometrik masalalar bo'yicha mustaqil fikrlash;
3. O'quvchilarda 9 sinf materiallari bo'yicha bilim boyligini oshirish;
4. O'quvchilarda test jarayonida misollarni bajarishda optimal usullardan foydalanish va vaqtadan yutish malakalarini shakllantirish;
5. Matematika darsining qiziqarli o'tishi;
6. Darsning samaradorligini oshishi;
7. O'quvchilarda dunyoqarashining rivojlanishi;
8. O'quvchilar tafakkurini oshirish;
9. O'quvchilarning diqqat-e'tiborini tortadi.

Bundan tashqari, o'qituvchida har bir o'quvchi bilan individual munosabat paydo bo'ladi. Bu interfaol usullar o'quvchi xotirasini kuchaytiradi, uni izlanishga chorlaydi. Ushbu metod o'quvchilarni o'z ustida ishlashga da'vat etadi.

Bizning ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikdagi faoliyatimiz, sinf-dars tizimi doirasida, test jarayoniga tayyorgarlikda va ta'limni tashkillashtirish shakllarining quyidagilarida o'z ifodasini topadi:

- frontal ish barcha ta'lim oluvchilar bilan bir vaqtida ishlash;
- guruhlarda ishlash;
- statik juftliklarda ishlash;
- individual ishslash.

Interfaol usullarni amalda qo'llash test jarayonining samarali bo'lishiga va o'quvchilarning unga tayyorgarlik ko'rishida quyidagi metodlar geometriya fanida katta ahamiyatga ega:

a) Kubik metodi. Kubik metodidan darsni mustahkamlash vaqtida foydalansa yaxshi natija beradi. 1 - qadam: o'quvchilarga mavzu o'tilgandan so'ng unga biror tushuncha shakllanadi. Shakllangan tushunchani quyidagicha yozish taklif etiladi.

1. Tasvirlang.
2. Taqqoslang.
3. o'xshating.
4. Tahlil qiling.
5. Ishlating.

## 6. Foydali va zararli tomonlari.

Masalan mavzu: "Prizma".

Asosi to`g`ri to`rtburchak, qarama qarshi yoqlari o`zaro teng va paralell bo`lgan prizma to`g`ri prizma deyiladi.

To`g`ri parallelopiped va to`rtburchakli prizma.

Sinf xonasi, gugurt quttisi, yashik, shkaf.....

2 ta asos, 4 ta yoq, 4 ta yon qirra, 12 ta umumiy qirra, 8 ta uchi bor.

b) Sinkveyn metodi.

Sinkveyn frantsuzcha so`z bo`lib "besh" degan ma'noni bildiradi. o`quvchilarga darsni mustahkamlash bosqichida biror fizik kattalik, asbob, hodisa nomi, fizik olimni quyidagicha besh qatorli misraga solishni taklif etish lozim.

Ot (1 so`z)

Sifat (2 so`z)

Fe'l (3 so`z)

Ibora (gap bilan ta'rifi beriladi)

Simonim (1 so`z yoziladi, otga yozilgan so`z bilan ma'nosi bir xil bo`lsin).

Masalan mavzu: "Kesmaning yo`nalishi. Vektor"

Vektor;

Erkin, nol nuqta;

Yasash, yo`naltirish, qabul qilish.

Agar vektorning boshi va oxiri ustma ust tushsa bunday vektor nol vektor deyiladi.

Nur (chegaralangan)

Sinkveyn metodidan foydalanish o`quvchilarni chuqur mulohaza qilishga o`rgatadi.

c) Venn diagrammasi. Bu metod qiyosiy tahlilda juda qo'l kelib, mavzuni sharhlab, ikki muammoni bir-biriga mulohaza qilib o'tishda qulay usuldir. Bu usul ikki doira shaklidagi aylana chiziqlarning qo'shilishi holatida bo`lib doiralarning ikki tarafiga tanlangan mavzuning faqat o`ziga xos individual xususiyatlari yozilib, o`rtada ikki doiraning qo'shilishi natijasida paydo bo`lgan bo'shliqda esa tanlangan ikki mavzuga xos turli fikrlar, xususiyatlar g`oyalar ko'renishi izohlab boriladi. Bir qarashda oddiydek tuyulgan bu usul o`quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshiradi, xotirani kuchaytiradi. U yoki bu mavzu ustida mustaqil ishlashga undaydi. Ikki mavzuning umumiy va individual, ya'ni faqat o`ziga xos tomonlarini tez farqlaydi. Mavzu tez va uzoq vaqt esda qoladi. « Venn diagrammasi » o`quvchini hushyorlikka, sezgirlikka chorlaydi. O`quvchilar 4—5 tadan uch guruhga, jami 15 taga ajratiladi. 1-guruuh doiraning o'ng tomoni, 2-guruuh doiraning chap tomoni, 3-guruuh ikki doiraning

qo's

hilishidan paydo bo'lgan bo'shliq ustida ishlaydi. Mavzuni keng qamrovli o'zlashtirib olishga ko'maklashadi. Guruhdagi qolgan o'quvchilar esa kuzatuvchilardir, ya'ni « Venn diagrammasi » ustida ishlayotgan 3 guruhning harakatlarini kuzatadilar. Hatto baholashlari ham mumkin. Dars, mavzu, harakatlar uzoq vaqt esda saqlanib qoladi. « Venn diagrammasi » turli xil g`oya, fikrlar kurashi va hujumini, munozaralarni keltirib chi-qaradi. O'quvchilarni o'yantiradi, mustaqil fikrlashga undaydi.



Xulosa qilib aytganda, darslarni interfaol usullarda o'tish o'quvchilarning, ayniqsa, 9-sinf o'quvchilarining testga tayyorgarlik bilim va ko'nikmalarini oshiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ayubovna, S. M. (2023). Physical Education And Sports Training Are An Integral Part Of A Healthy Lifestyle. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 338-343.
2. Ayubovna, S. M. (2023). SPORT, ESTETIKA VA ESTETIK TARBIYA. Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research, 1(3), 82-89.
3. Ayubovna, S. M. (2023). Psychological Research Of Coaching Activities In Sports. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 344-352.
4. Saidova, M., & Sayfiyev, H. (2023). CONTENT-IMPORTANCE AND PRINCIPLES OF PHYSICAL EDUCATION CLASSES. Modern Science and Research, 2(9), 192-199.
5. Сайфиев, X., & Сайдова, М. (2023). БАДМИНТОНИСТЫ ФИЗИЧЕСКИЙ ПОДГОТОВКА И ЕМУ РАЗРАБОТКА МЕТОДЫ. Инновационные исследования в науке, 2(4), 45-54.
6. Sayfiyev, H. X. (2023). SPORT GIMNASTIKASINING PEDAGOGIK O'LCHOV USULLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 307-315.
7. Ayubovna, S. M., & Xayrullayevich, S. H. (2023). YOSH BOLLALARDА SPORT SPORT GIMNASTIKASINING PEDAGOGIK O'LCHOVLAR NAZARIYASI VA TASHKILIY-METODIK ASOSLARINI TADQIQ ETISHNING MAQSADI, VAZIFALARI. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 2(22), 108-118.
8. Xayrullayevich, S. H. (2023). Use of Acrobatic Exercises and Their Terms In The Process of Teaching Gymnastics. Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599), 1(9), 80-86.

European science international conference:  
THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD

9. Xayrulloyevich, S. H. (2023). Sport gimnastika mashg'ulotlarida asosiy harakat qobiliyat (FMS), postural (muvozanat) nazorat va o'zini o'zi idrok etishga sport gimnastikasining ta'sir. Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research, 1(3), 74-81.



## INGLIZ TILI DARSALARIDA O'QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Mirahmedova Marg‘uba

**Annotatsiya:** *ingliz tili darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlanirivchi mashg’ulotlardan keng foydalanish ahamiyati borasida fikr yuritilgan. Ingliz tilini o’qitishda tanqidiy fikrlashni rivojlanirish kabi zamonaviy yondashuvlar va innovatsion usullarni qo’llash natijasida, o’quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatları rivojlanishi, nutqi ravonlashishi, tez va to’g’ri javob berish malakasi shakllanishi, bilimga ishtiyoq uyg’otishi hamda ingliz tili darslarida kreativ yondashuvning ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan.*

**Kalit so’zlar:** *ingliz tilini o’qitish, tanqidiy fikrlash, kreativ yondashuv, nutq ko’nikmalari.*

